

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**Alisher Navoiy nomidagi
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

«IJTIMOIY-IQTISODIYOT» FAKULTETI

**Bitiruv malakaviy ishi himoyaga
tavsiya etildi «Siyosatshunoslik.
Demokratik jamiyat qurish nazariyasi
va amaliyoti» kafedrasi mudiri,
f.f.n. dots. M.Muxtorov**

«_____» _____ 2012 yil

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

MAVZU: «G'ARB UYG'ONISH DAVRIDA TASVIRIY SAN'AT»

Bajardi: «Falsafa» ta'lim yo'nalishi
4-kurs talabasi
Shodiyeva Fotima

Ilmiy rahbar: «Siyosatshunoslik.
Demokratik jamiyat qurish nazariyasi
va amaliyoti» kafedrasi dotsenti dots.
B.Xurramova _____

Samarqand – 2012

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet Ijtimoiy-iqtisodiyot
Yo'nalish Falsafa 5220300
(kodi, to'liq nomi)

“Tasdiqlayman”
O'quv-metodik boshqarma boshlig'i
_____ H.Qurbonov
“ ____ ” _____ yil

Malakaviy bitiruv ishi bo'yicha
TOPSHIRIQ VARAQASI

1. Ijrochi: Shodiyeva Fotima

(F.I.Sh.)

2. Mavzu: «G'arb Uyg'onish davrida tasviriy san'at»

Mavzu universitet Ilmiy Kengashining _____ yil “ ____ ” 1 _____ dagi _____ sonli
qarori bilan tasdiqlangan.

**3. Mavzuning dolzarbligi, nazariy va amaliy (iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-
texnik, mehnat muhofazasi, hayot havfsizligi va h.k.) ahamiyati.**

G'arb Uyg'onish davri madaniy taraqqiyot yuksakligi, xususan tasviriy
san'at rivojlanishi bilan diqqatga sazovor. Ushbu davr san'atkorlari asarlari hozirgi
zamon estetik tarbiya jarayonida ijobiy ta'sir ko'rsatadi, amaliy ahamiyat kasb
etadi.

**4. Malakaviy bitiruv ishini bajarish uchun tavsiya qilinadigan ilmiy, o'quv-uslubiy
va boshqa axborot manbalari (darslik, o'quv qo'llanmalari, ma'ruzalar matni,
monografiya, ilmiy maqolalar va h.k.)**

1. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-barpo etish pirovard
maqsadimiz. Toshkent. 2010
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: 2008.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: 1994.
4. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994.
5. Ashrafiy M. Temur va Ulug'bek davri Samarqand miniatyurasi. T. 1996.
6. Abdullayev N. San'at tarixi. T.: 1987.
7. Usmonov A. Kamolliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. T.: 1977.
8. Quziyev T. Behzod va tamaddun. T.: 2000
9. История зарубежного искусства. М. 2002.
- ^{10.} Эстетика Ренессанса. М. 1981.

5.Malakaviy bitiruv ishi bo'yicha ma'lumotlar to'plash hamda tadqiqot ishlari olib borish manbalari va joylari (o'quv zali va xonalari, ilmiy kutubxona, laboratoriya, tashkilot, ilmiy yoki ta'lim muassasasi)

SamDu ilmiy kutubxonasi

6.Malakaviy bitiruv ishini tayyorlash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar rejasi:

№	Ishning mavzusi	Taxminiy xajm (bet)	Ijro muddati	Izoh
1.	Masalaning qo'yilishi: Mavzuning dolzarbligi, yechilishi yoki o'rganilishi lozim bo'lgan masalaning mohiyatini va maqsadini yoritib berish (kirish qismi).	60-65	Aprel 2012	Bajarilgan
2.	Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish (yordamchi mulohaza va faktlar).		O'quv yili davomida	Bajarilgan
3.	Olib borilgan tajribalar, tadqiqot ishlari, natijalarni tahlil qilish va tartibga solish (paragraf, bob, bo'lim yoki qismlar bo'yicha).	Ishning I bobi yozib tugatildi	Fevral 2012	Bajarilgan
4.	Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati bo'yicha xulosa berish hamda tadbiiq sohalari va usullariga oid takliflar tayyorlash.	Ishning II bobi yozib tugatildi	Mart, aprel 2012	Bajarilgan
5.	Bitiruv ishini rasmiylashtirish va uning himoyasi uchun zaruriy ko'rgazmali vositalarni (jadvallar, rasmlar, grafiklar, diagrammalar, maket, stend va h.k.) tayyorlash.	Ilmni rasmiylashtirish	May 2012	Bajarilgan
6.	Dastlabki himoyaga tayyorgarlik ko'rish va himoyaga chiqish matnini tayyorlash.		May 2012	Bajarilgan

7.Ilmiy maslahatchilar: dots. B.Xurramova

Maslahatchilar	Bo'limlar	Topshiriqlar	Izoh

Ilmiy rahbar _____ dots. B.Xurramova

Kafedra mudiri _____ dots. M.J.Muxtorov

Topshiriqni bajarishga oldim _____ F. Shodiyeva

_____ ball «_____» _____ yil.

**Mavzu: G'ARB UYG'ONISH DAVRIDA TASVIRIY SAN'ATNING
XUSUSIYATLARI**

KIRISH.....3-5

**I BOB. G'ARB UYG'ONISH DAVRI MADANIYATINING ASOSIY
JIHATLARI.....6-38**

1.1. Uyg'onish davri tushunchasi va mohiyati.....6-17

1.2. Sharq va G'arb Uyg'onish davrida madaniy taraqqiyot..... 18-38

II BOB. G'ARB UYG'ONISH DAVRIDA TASVIRIY SAN'AT.....39-60

2.1. Italiya Uyg'onish davri tasviriy sant'atning badiiy jihatlari.....39-52

2.2. Rafael va Leonardo da Vinchi ijodiyotining asosiy xususiyatlari...53-60

XULOSA.....61-63

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI64-65

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi:

Jahon madaniyati tarixida Renessans davri mutafakkirlarining estetik qarashlari, asarlari umumsinsoniy mazmuni bilan diqqatga sazovordir. Chunki, hozirgi davr madaniyatini globallashuv jarayonida ushbu muammo dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Uzoq ming yillar tarixi shundan dalolat beradiki, o'zbek milliy davlatchilik tarixi eng avvalo ma'naviyat va ma'rifatning jamiyat hayotida muhim o'rin egallanganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu azaliy an'anaga mustaqillik yillarida ham alohida e'tibor berilishi juda ahamiyatli bo'ldi. Qayd etish lozimki istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab, madaniyat va ma'rifatga e'tibor kuchaydi. Eng avvalo mamlakat hukumati? Prezident Islom Abdug'aniyevich Karimovning ma'naviy-ma'rifiy omillarga nisbatan munosabati shakllandi.

«Milliy qadriyatlarimizni tiklash o'zligimizni anglash, millily g'oya va mafkurani shakllantirish strategik vazifalarimizdan hisoblanadi»¹. Ana shu vazifani ijro etishda san'at asarlarining o'rni beqaiyosdir. San'at ijtimoiy hodisa sifatida voqelikni badiiy bilish va anglash jarayonida uning voqelikni badiiy tasvirli shaklda anglash manbalaridan biri hisoblanadi. San'at ma'naviy hayotda sodir bo'layotgan har qanday o'zgarishlarga munosabat bildiradi, davr ma'naviy muhitining hamma tomonlarini ifodalaydi. Jahon falsafasi insoniyat hayotining tarkibiy qismi sifatida umumiy uyg'unlikda namoyon bo'ladigan ijtimoiy tafakkur tizimidir. Shu ma'noda «G'arb Uyg'onish davrida tasviriy san'atning xususiyatlari» nomli malakaviy bitiruv ishi dolzarb ahamiyatga ega.

Uyg'onish davri badiiy-estetik tafakkurining rivojlanishda Leonardo da Binchining xizmati beqiyosdir. Ma'lumki, bu davrda realistik san'at gullab-yashnagan edi. U musavvir sifatida qator asarlar yaratib, Italiya va undan tashqaridagi musavvirlarga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. U san'atning yirik nazariyotchisi sifatida maydonga chikadi. Uningcha, san'at ham fan kabi real

¹ Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-barpo etish pirovard maqsadimiz. Toshkent. 2010 24-bet»

dunyoni bilishga xizmat qiladi. Fanning asosiy vazifasi moddiy dunyoning miqdor tomondan ochishdir. Masalan, geometriya doirani kvadratga, tanani kubga qushishga harakat qiladi, arifmetika esa kvadrat va kub kupaymalar bilan ish olib boradi. Oqibatda ikkala fan ham miqdorning o'zluqli va o'zluksizligini bilishga erishadi, lekin tabiatning haqiqiy go'zalligi ifodalangan sifat oldida ojizdir. Sifatlilikni bilishga asosan san'at orqali erishish mumkin. Sifatlilik shu bilan bir qatorda konkretlilikni, individual-likni, o'ziga xos, takrorlanmaslikni ham bildiradi. Bunda buyuk rassom tabiatda insonni estetik bahramand qiluvchi funksiyani ko'radi. U «shu darajada lazzeatli va xilma-xillikda shunchalik tугanmaski, bir turga tegishli daraxtlar orasida boshqasiga to'la uxshaydigan o'simlik topilmaydi. Usimliklar, shoxlar, barglar, uruglar orasida ham boshqa-siga aniq uxshaydiganini uchratib bo'lmaydi».

San'atning bilishdagi roli ijodkorning bu konkretlik va indi-viduallikni maksimal darajada tiklash layoqatida aniqlanadi. San'at-lar ichida birinchisi, Leonardo fikricha, tasviriy san'atdir. Chunki, «jonning tuynugi hisoblanmish ko'z – tabiat cheksiz ijodining eng kup boyliklarini va buyukligini umumiy his qildiradigan bosh yo'ldir.

Tasviriy san'atni faqat savodlilar emas, savodsizlar ham unday yoki bunday tushunadilar. Tasviriy san'at – tovushsiz poeziya, poeziya esa – rangsiz tasviriy san'atdir². Mohiyatan, Leonardo fikricha, san'-at fandan yuksakdir, chunki u tabiatning o'zini butunlay haqiqiy tasvirley oladi, fan esa bunga layoqatli emas.

G'arb Uyg'onish Davrining o'ziga xos badiiy va estetik jihatlari Italiya yetuk san'atkori S. Rafael Santi (1483-1520) ijodida yaqqol nazarga tashlanadi.

Rafael o'z asarlarida Leonardo da Vinchi uslublarini davom ettirib san'atga xos bo'lgan mutanosiblik (garmoniya) go'zallik to'g'risidagi ideallarni mujassam etadi.

Rafael va Leonardo da Vinchi asarlaridagi umuminsoniy qadriyatlarni belgilash hozirgi davrda san'at jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning o'rganish darajasi: Ushbu mazvu bo'yicha taniqli olimlardan M.Ashrafiy¹, A.Abdullayev², va boshqalar ko'pgina tahliliy ilmiy tadqiqot ishlari yozganlar³.

«G'arb san'ati tarixi»⁴ (rus tilida) mukammal kitobida va O'zbekiston Badiiy Akademiya jurnali «San'at»da Rafael ijodini har tomonlama o'rni belgilab berilgan. Biz ushbu asarlarga tayanib malakaviy bitiruv ishimizga jahonga mashhur san'atkorlar Rafael va Leonardo da Vinchi⁴ asarlardagi umuminsoniy qadriyatlarini hozirgi davrdagi san'at jarayonida belgilashga harakat qildik.

Mavzuning maqsad va vazifalari.

- San'at asarlarining ma'naviyat tizimidagi o'rni, amaliy ahamiyati
- Uyg'onish davri tushunchasi va mohiyati
- Sharq va G'arb Uyg'onish davrida madaniy taraqqiyot
- G'arb Uyg'onish davrida tasviriy san'at
- Rafael asarlarining uslubiy-badiiy jihatlari
- Rafael va Leonardo da Vinchi asarlarida umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi davrdagi ma'naviyat tizimidagi o'rni.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi;

Malakaviy bitiruv ishi 2 bob, 4 paragraf, kirish va xulosa qismidan iborat. Ushbu boblarda nazariy adabiyotlarga tayanib maqsad va vazifa sifatida belgilangan muammolar yoritildi.

Malakaviy bitiruv ishning metodologiyasi. Prezident I.A.Karimov asarlaridagi mulohazalar ishni yozishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, shu bilan birga qiyosiy tahlil metodiga asoslanib G'ar Uyg'onish davrida tasviriy san'atning xususiyatlarini yoritishga harakat qildik.

Malakaviy bitiruv ishining amaliy ahamiyati. Ushbu malakaviy bitiruv ish materiallari falsafa fakulteti talabalari ilmiy tadqiqotchilar, magistrilar, maxsus o'quv muassasa mutaxassislarni uchun manba sifatida xizmat qiladi.

¹ Ashrafiy M. Temur va Ulug'bek davri Samarqand miniatyurasi. T. 1996.

² Абдуллаев Н. Санъат тарихи. Т.: 1987.

³ История зарубежного искусства. М. 2002.

⁴ Эстетика Ренессанса. М. 1981.

I BOB. G'ARB UYG'ONISH DAVRI MADANIYATINING ASOSIY JIHATLARI

1.1. Uyg'onish davri tushunchasi va mohiyati

Renesans atamasi 1550 yilda «Jorj Vazari asari mashhur san'atkorlar hayotidan lavhalar» kitobida keltirilgan, ma'nosi Uyg'onishdir. (XIV-XVI asrda Italiyada shakllangan).

Uyg'onish davri tushunchasi. Feodalizm jamiyati qo'ynida ilk kapitalistik munosabatlarning tarkib topishi va rivojlanishi Yevropa hayotida yangi va muhim o'zgarishlarga olib keldi. Din asta-sekin o'z mavqeini yo'qota bordi. Omma dindan uzoqlasha bordi, shaharlar kengaya boshladi. Shaharlarda savdo-sotiq shu darajada rivojlandiki, dengiz orqali dunyoning boshqa burchaklari bilan savdo qilishga talab kuchaydi. Yangi qit'alar kashf qilindi, bu voqealar insonlar tafakkuri va hayotga bo'lgan munosabatlarida tub o'zgarishlar yasadi. Ana shu taraqqiyot jarayonida yangi dunyoviy madaniyat shakli kamol topdi. Kitob bosishning vujudga kelishi adabiy va ilmiy asarlarni keng tarqatish imkoniyatini yaratdi. Mamlakatlar orasidagi yaqin munosabatlar esa badiiy hayotdagi yangiliklarni tezda o'zlashtirish imkonini tug'dirdi. Mamlakatlar orasida madaniy hayotdagi yangiliklar tez tug'ildi.

Bu taraqqiyot davri Yevropa madaniyati tarixida "Uyg'onish davri" deb nom oldi. Bu iborani ilk bor italyan rassomi va san'atshunosi Jorj Vazari tomonidan Italiyada san'at uzoq o'rta asrdan so'ng yana qaytadan «uyg'onganligi» sababli ishlatgan va asosan Jotto ijodiga nisbatan qo'llagan edi. O'rta asrlar davridan so'ng madaniyat va san'atdagi markaziy e'tibor insonga uning ijtimoiy hayotida tutgan o'rniga qaratilganligi, uning "uyg'onishligini" belgisi edi. Umumlashtirib aytganda uyg'onish davrida rangshunoslik, soya va yorug', odam anatomiyasi va shunga o'xshash sohalarda katta yutuqlar qo'lga kiritildi.

Me'morchilikda esa ibodatxonalar bilan bir qatorda ko'p qavatli va shinam binolar qad ko'tara boshladi. Binolarning tashqi va ichki ko'rinishlarini bezash, ular ichidagi fazoni tashkil qilish masalasida ancha yutuqlarga erishildi.

Uyg'onish davrida o'ziga xos tomonlari protorenessans davrida dastlab Italiyada o'zini namoyon qildi. Italiyaning Sharq va G'arb orasidagi muhim savdo yo'lida joylashishi unda kapitalistik munosabatlarning juda erta shakllanishiga olib keldi. Savdo-sotiqning rivojlanishi, o'zga yurtlar bilan bo'lgan aloqaning kuchliligi hunarmandchilikning rivojlanshiga zamin yaratdi. Feodal munosabatlarning zaifligi esa bu yerda yangi siyosiy tartibni - shahar-respublika tartibining paydo bo'lishiga va Italiyaning birinchi bo'lib Yevropa mamlakatlari ichida kapitalistik mamlakatga aylanishiga sabab bo'ldi. Ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan bu xususiyat madaniyat va san'atda ham o'z ifodasini topdi. Bu o'zgarish savdo va ishlab chiqarish rivojlangan Florensiya, Piza, Siyenada hamda Italiya shimolidagi Genuya, Milan, Venesiyada juda sezilarli bo'ldi.

Jamiyatsdagi shaharlar orasida "gumanizm" deb nomlanuvchi yangi g'oya shakllandi. Gumanizm bu - insonparvarlik g'oyasidir.

Uyg'onish davri gumanistlari dunyo va inson paydo bo'lishidagi ilohiy g'oyalarni butunlay inkor qilmadi, balki olam doimiy va qat'iy qonunlarga muvofiq ravishda bunyodga kelishini tasdiqladilar.

Uyg'onish davridan boshlab fan g'oyat tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Yer va osmon jismlari mexanikasi, shu bilan birga unga xizmat qiluvchi matematik usullarni kashf etish va takomillashtirish sohasida buyuk ishlar qilindi. Analitik geometriya, logarifmlar, differensial va integral hisob joriy qilindi. Sayyoralarning harakat qonuni ochildi. Suyuq va gazsimon jismlar mexanikasi "Uyg'onish davri" oxirida to'la ishlab chiqildi. Shuningdek, bu davrda tabiatning eksperimental matematik tadqiqot usullari vujudga kelgan edi.

Italiya olimi Jordano Bruno ham "Uyg'onish davri"ning yirik vakillaridan bo'lib, Rim katolik cherkoviga qarshi kurash olib bordi. Bruno, Keplerning kashfiyotidan foydalanib, mazkur falsafiy qoidalarining fizik va astronomik mazmunini aniqlashtirdi. U tuproq, havo, suv, olov va efirdan iborat yer bilan osmon olamning fizikaviy yakka jinsliligini tasdiqlaydi, deb uqtiradi.

Bruno ta'limoticha, moddiy olam birlamchi bo'lib, ong esa ikkilamchidir. Moddiy olam mangu, u hech qanday xudo tomonidan yaratilgan emas: bordan

yo'q, yo'qdan bor bo'lmaydi, u cheksizdir, lekin bu cheksiz narsa va hodisalar bir-biri bilan o'zaro aloqada, birlikdadir. quyosh sistemasidan tashqari yana sannoqsiz dunyolar, quyoshlar, yerlar mavjud, dunyo-bepoyon, moddiy olam uning bir kichik qismidir, yer esa bepoyon olamning zarrachasidir.

Bruno ta'limoti, uning hatti-harakatlari cherkov tomonidan qattiq tanqid ostiga olinib, cherkov sudining hukmi bilan u 1600 yil 17 fevralda Rimdagi Gullar maydonida gulxanda yondirilgan.

Italyan olimi Galileo Galiley (1564-1642) ham "Uyg'onish davri"ning buyuk olimlaridan biridir. U olamdagi barcha narsalar va hodisalar moddiy asosga ega, olam benihoya, materiya abadiy, tabiat yagona bo'lib, mexanika qonunlariga bo'ysunadi, deb tushungan.

Galiley qadimgi grek mutafakkiri Demokritni ustoz deb tan olgan.

Ilmiy tajribaga asoslangan matematik usulning asoschilaridan biri bo'lgan Galiley mexanika va astronomiya sohalarida bir nechta ilmiy kashfiyotlar qilgan. Uning kashfiyotlari geleosentrizm nazariyasining to'g'riligini, olamning cheksizligi g'oyasini yer va inson jismlarining moddiy jihatdan bir-biriga o'xshashligini, tabiatning mavjud qonunlari va ularni bilish mumkinligini isbotlab bergan. Galiley 1632 yili "Olam tuzilishining ikki asosi – Ptolomey va Kopernik sistemasi haqida dialog" nomli asarini nashr qildi. Uning asari nashrdan chiqqandan keyin Galiley cherkov sudiga berilgan.

Idrok insonga shuning uchun berilganki, idrok yordamida inson tabiat qonunlarini tushunib o'zlari yashayotgan jamiyatlarini yangicha tuzilishini qo'llab-quvvatlashlari yerda baxtning qaror topishiga garov bo'lishi, shu harakatlari bilan oxiratlarini ham obod qilishlari mumkin. Inson tabiat qonunlariga mos ravishda rivojlanuvchi tabiatan aqlli mavjudot hisoblanib, nafaqat moddiy dunyo markazida turadi, u shuningdek, badiiy tushunish va tasvirlash obyektining asosi sifatida ham asosiy o'rinni egallaydi.

Madaniyat, san'at, ilm-fan va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda Uyg'onish davri to'rga bo'lib o'rganiladi:

1. Uyg'onish davri arafasi – protorenessans. XIII-XIV asrlar.

2. Ilk uyg'onish davri – XV asr.
3. Yuqori uyg'onish davri – XV asr 2 yarmi, XVI asr 1 chi yarmi.
4. So'nggi uyg'onish davri – XVI asrning 2 chi yarmi.

Albatta, bu davr barcha Yevropa mamlakatlarida turlicha kechdi. Masalan, Germaniya so'nggi uyg'onish, Niderlandiya esa yuqori uyg'onish davrini boshlaridan kechirmaganlar.

Uyg'onish davri kishilari insonning aql-idrokiga, imkoniyatining cheksizligiga, ma'rifatning kelajakdagi tantanasiga ishonidilar. o'z izlanishlari markaziga esa insonni qo'yidilar. Insonlar chin ma'noda xalqchil asarlar yarata boshladilar, xalq ommasining orzu-istaklarini, xis-tuyg'ularini ifodalab chiqdilar, ilg'or gumanistik g'oyalarni ko'tarib chiqdilar. Uyg'onish davri madaniyati antik dunyo madaniyatidan ilhomlanadi, antik dunyo yodgorliklarini qunt bilan o'rgandi, ulardan ta'sirlandi. Antik dunyo yodgorliklarining Italiyada ko'plab saqlanib qolganligi bunga juda yaxshi imkon yaratdi. Lekin, antik san'atdan farqli ravishda o'z fikrlarini, tushunchalarini, xis-tuyg'ularini ifodalashda foydalandilar. Asarlar ta'sirchanligini oshirish maqsadi ko'p sohalar bilan hamkorlikda ishlashni taqozo etdi. Rangshunoslik, soya va yorug', odam anatomiyasi va shunga o'xshash sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritildi.

Protoressans davrida Florensiya Italiyadagi yirik hunramandlik va savdosotiq markaziga aylandi. Siyosiy hokimiyat hunarmandlar va savdogarlar qo'liga o'tdi. Endilikda aql-farosatli, ijodkor inson imkoniyatlariga qiziqish kuchaydi.

Shunday g'oyalar ostida ijod qilgan o'z davrining yetuk san'atkorlaridan haykaltaroshlar: Nikalo Pizano, Arnolfo di Kambio, Jovanni Pizano, Lorenzo Giberti, Donatello, Yakopo della Kvercha, Andrea Verokkio, Brunelleski, haykaltarosh va rassom Mikelanjelo Buonarotti, Benvenuto Chellini va boshqalar. Bu san'atkorlar ijodida insonlar hayoti, inson baxt-saodat yaratuvchisi va ozodlik uchun kurashchi ekanligi asosiy mavzu bo'lib qoldi. Masalan, Donatelloning "David" deb nomlangan haykali uyg'onish davrida birinchi marta libossiz tasvirlangan haykal bo'ldi.

Adabiyot olamida: Dante Aligyeri, Petrarka, Bakkachcho, D.Deffo, Stendal, Balzak, Flober, Viktor Gyugo, J.Sand, A.de Myusse, Ann Golan, Serj Golan, Fenimor Kuper, Gi de Mopassan, Pyer Suvestr, Marsel Alen va boshqalar.

Musiqa olamida: I.S.Bax, L.Betxoven, V.A.Mosart, List, Shopen, Shubert, Solyeri, G.F.Gendel, R.Shuman, A.Gedike, K.Cherni, Puchchini, Paganini va boshqalar.

Uyg'onish davrining barokko oqimiga mansub bo'lgan I.S.Bax o'z asarlarini og'ir, vazmin chuqur mazmunli, ma'naviy boy qilib yaratadi.

I.S.Bax o'z asarlarini asosan organ (musikiy asbob) uchun yaratgan bo'lsada, bu davrda organ kabi qudratli musiqiy asbob faqatgina cherkovlarda uchirdi. Bu musiqiy asbobdan esa ibodat paytida messa (Xudoni madh etuvchi turli diniy qo'shiq gimn)lar kuylash uchun foydalanilardi. Shunga qaramasdan Bax o'z asarlarini davrining bosh g'oyasi bo'lmish insonlar erkinligiga, baxt-saodatiga bagishlab yozadi. Biroz kechroq vujudga kelgan rokoko stilining oxiri, klassisizm yo'nalishi boshlariga esa Betxoven, Mosart ijodini misol qilib keltirish mumkin. Betxoven asarlari ma'naviy jihatdan chuqur mazmunni kashf etsada, lekin ijro etilish tezligi Bax asarlariga nisbatan yengil, sho'xchadir. Betxoven kuchli emosional va lirik shaxs bo'lgan. V.A.Mosart asarlari ham sho'x, quvnoq, xushchaqchaq, mellizmlarga boydir. Rokoko stili janri davrida barcha mayda narsalar, chiroyli kichik amaliy-dekorativ san'at namunolari qadrlanar edi. Mosart esa aynan shu jihatni, mayda mellizmlarni o'zining katta asarlarida qo'lladi. o'z davrining yetuk namoyondalari ham bu jarayonni amalga oshira olmadilar. Mosart yaratgan asarlar juda mazmunli bo'lib, ma'naviy jihatda o'ta boydir. Bugungi kunga qadar avlodlarning barchasi Mosart kabi buyuk kompozitor ijodidan baxramand bo'lib kelmoqda. Mosart, Betxoven, Bax, Shopen kabi yirik ijodkorlar asarlari elitar madaniyat va yuqori san'at darajasiga kiritilgandir.

Shuningdek, rang tasvir, portret umuman tasviriy san'atda ham ifodalanadigan insondagi nozik his-tuyg'ular o'zining butun borlig'i bilan uyg'onish davrining buyuk san'atkorlari Jotto di Bondone, Simone Martini, Mazachcho, Dominiko Girlandayo, Sandro Bottichelli, Andrea Verokkio, Jovanni Billini, uning otasi

Yakopo Bellini, Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo, Tisian Vechello, Jorjo Vazari, Djordjone va boshqalar ijodida namoyon bo'ldi.

XIV asr oxirlaridan boshlab, Florensiya Italiyadagi muhim siyosiy va madaniy markazlardan biriga aylandi. Natijada Italiya madaniyati va san'atining keng ko'lamda qayta yangilanishi va rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ilk Uyg'onish davri san'atkorlari protornessans madaniyati yutuqlarini davom ettirgan holda, uni ilmiy jihatdan boyitdilar. o'z asarlari markaziga inson obrazini qo'ydilar.

Bu davrda ulkan binolar, g'oyat katta gumbazli va qator ustunli sobor, saroy va ibodatxonalar qurdilar.

Florensiya hukumdorlaridan biri Kozimo Medichi keyinchalik uning nabirasi Lorenzo dono siyosatchi, diplomat bo'lib chiqishdi. Ular Florensiyaga mashhur san'atkor, olim, donishmandlarni to'pladilar. 1453 yil Vizantiya turklar tomonidan bosib olingandan keyin, u yerdagi olim va san'atkorlar Florensiyaga kelishdi. Florensiya grek tili, adabiyot va falsafani o'rganish markaziga aylandi. Platon akademiyasi, kutubxona, birinchi badiiy muzey tashkil etildi.

Fransuz qo'shinlarining Italiya yerlarini bosib olishi natijasida xalqning o'z ozodligi, milliy butunligi uchun kurash ortdi. Bunday ijtimoiy o'zgaruvchanlik butun Yevropa madaniyati, ilm-fani orasida yuqori Uyg'onish davrini keltirib chiqardi. Yuqori Uyg'onish davri juda ulug' bo'lib, butun Yevropa madaniyati, san'ati, ilm-fani taraqqiyotining "oltin asri" hisoblanadi.

Shu davrda yashab ijod etgan Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo, Tisian, buyuk san'atkorlar o'z mohiyati jihatdina chuqur, mahorati jihatidan yuksak, barkamol asarlar yaratdilar.

Jismoniy baquvvat, ma'naviy barkamol, har qanday diniy ta'sirlardan xoli bo'lgan, o'zi va o'zgalar uchun kurasha oladigan, xalq manfaatini o'z manfaatidan yuqori qo'ya oladigan inson shu davr san'at asarlarining bosh qahramoniga aylandi. Ona, onalik mehri ulug'landi. Bu o'rinda Leonardo de Vinchining "Madonna"si va mashhur "Mona Liza" portretining, Rafaelning "Sikstin Madonnasi", Mikelanjeloning haykallari va devoriy suratlarini eslash kifoya.

XVII va XVIII asrga kelib G'arbiy Yevropa taraqqiyotida yangi davr boshlandi. Bu asarlarda Angliya, Fransiya va boshqa Yevropa mamlakatlarida kapitalistik munosabatlar tez sur'atlar bilan rivojlana boshlaydi. Kapitalistik ishlab chiqarish usuli yangi ishlab chiqaruvchi kuchlar ehtiyojiga muvofiq tabiatni ilmiy bilish jarayonini tezlashtirdi.

Shuningdek, XVII - XVIII asrlarda Yevropada fan bilan birgalikda san'at va madaniyat ham gurkirab o'sa boshladi. San'atda real hayotni tasvirlash rivojlandi. San'at majmuasining kengayishi uning yangi tur va janrlarini maydonga keltirdi. Portret, natyurmort, manzara, maishiy janr ko'p san'atkorlarni o'ziga torta boshladi. Haykaltaroshlikning yangi ifoda vositalarini izlab topdilar.

Barokko XVI asr oxridan boshlab vujudga keladi. Yevropa madaniyatida asosiy yo'nalishlardan biri. U barcha madaniyat va san'at turlariga qaysi stilda, qanday g'oya ostida ijod qilish kerakligini diktovka qilib, yo'nalish berib turgan. qisman saroy madaniyati va san'ati ko'rinishi bilan bogliq bo'lgan. Ya'ni, asosan ozodlik, erkinlik, milliy birlashuvga bag'ishlangan madaniyat yo'nalishi bo'lsada ko'rinishi jixatidan, ijrosi jixatidan yuqorida aytilganidek saroy uchun yaratilgan asarlar kabi katta, ulug'vor, o'ta chuqur mazmunli va ma'naviyatga boy. Xalq uchun yaratilgan bo'lsada, oddiy, yuzaki, sayoz asarlar emas, aksincha barchasi professional, ogir, vazmin, mulohaza qilishga undovchi asarlardir.

Rokoko XVII-XVIII asrlar orasida vujudga kelgan oqim va yo'nalish. Rokoko yo'nalishi ham barokko yo'nalishi kabi o'z davri madaniyati va san'ati uchun andoza vazifasini bajargan. Bu yo'nalish asosan aristokrat – zodagonlar, saroy ayonlari va saroy bazmlari uchun xizmat qilgan. Rokoko sho'x, quvnoq, mayda melizm va mozaika-miniaturalarga, naqshlarga boy bo'lgan yo'nalishdir.

Klassisizm oqimida esa hamma narsa xotirjam va ulug'vor. Uning namoyondalari uyg'onish davri ijodkorlari singari antik va yuqori uyg'onish davri an'analarni qabul etib, uni rivojlantirishga harakat qiladilar. Lekin shu bilan birga klassisizm vakillari o'tmish san'ati badiiy shakl va obrazlarni o'zlari yashab turgan davr mazmuni bilan to'ldirishga, boyitishga harakat qildilar.

Klassisizmdan so'ng XVIII-XIX asrlarga kelib **romantizm** oqimi vujudga keladi. Agar Barokko yo'nalishida san'at namunalari o'zining kengligi, boyligi, tantanavorligi, dengiz to'lqinlari kabi kuchli va qudratliligi bilan ajralsa, rokoko yo'nalishi o'zining o'ynoqligi ichki – mayda naqsh va bezakka boyligi, nozikligi, yengilligi, nazokatligi va nafisligi bilan ajralib turadi. Masalan, Mosartning “Don Juan” operasi yoki me'morchilikda chig'anoq kabi mayda naqshlar va x.k.

Klassisizm oqimida klassik madaniyat va san'at namunalariga qaytish, antik davrdagi tarixiy madaniyatni qayta tiklash vujudga kelgan.

Romantizm oqimida san'at ham, madaniyat ham romantikaga, emosional, his-hayajonli, fantaziya va orzu-istaklar fonida yaratilgan madaniyat va san'at namunalari kiradi. Bunda oddiy xalq orzusidagi tenglik g'oyasi, sevgi-muhabbat mavzusi asosiy o'rinni egallaydi.

Romantizmdan so'ng XIX asrlarga kelib realizm, hamma narsani real boricha qabul qilish, so'ngra XX asr texnogen madaniyat turi vujudga keldi. Texnika so'zi san'atni anglatib, biron-bir narsani yuksak mahorat bilan bajarish yoki buyuk narsani yaratish, kashf qilish degan ma'noni bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, «Uyg'onish davri madaniyati yaratgan asosiy qadriyatlar keyingi asrlar Yevropa madaniyati asosini belgiladi. Uning chuqur rivojlanishi natijasida XVII asrda “ilmiy inqilob”, XVIII asrda ma'rifatparvarlik g'oyalarining tarqalishi va sanoat inqilobi boshlanishiga, nihoyat XIX-XX asrlar davomida madaniyatning klassik texnikaviy shaklidagi yutuqlariga olib keldi.

XVII asrda fan yevropaliklar hayotiga, jamiyat ishlab chiqarishining barcha tizimlarini rivojlantirish va me'yorida faoliyat ko'rsatishning tabiiy va zaruriy sharti bo'lib jadal kirib keldi.

XVII asrda ilmiy inqilob matematika va mexanikada sodir bo'lib, aniq fanning ikki yo'nalishi, ya'ni aksiomatik va tajribaviy faoliyatlar birlashdi.

Zamonaviy fanda eksperiment (tajriba) bilishning usuli va quroli sifatida nazariy fanning antik va o'rta asrlar shaklidan tubdan farq qiladi¹».

¹Gulmatov E., va boshqalar. Madaniyatshunoslik: Ma'ruzalar matni. T., 2000, 96-97 betlar.

² O'shbu asar, 97 bet.

³ O'shb asar. 98 bet.

Fanning shakllanishi va sekin-asta jamiyat hayotiga muhim asos bo'lib kirishi yangi davr kishisining turmush tarzi, fikr yo'sini tafovutli qiyofasi sifatida rasionalizmning (aqliy tafakkur – inson idrok va zakovat orqali atrof-muxitni, o'z-o'zini biladi deb hisoblash) paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Rasionalizmning keng ko'lamda namoyon bo'lishi XVIII asrdagi ma'rifatparvarlik harakati bilan bogliq. “Barcha baxtsizlik va nohaqlikdan insoniyatning aziyat chekishi bilimsizlikdan ekanligiga, faqat ma'rifatli xalq “Ozodlik, Tinchlik, qardoshlikni” o'rnatishga ma'rifatparvarlar ishonganlar. Ma'rifatparvarlar vakili D.Didro va D.Alamber “Fan, san'at va hunarmanchilik ensiklopediyasi”ni nashr qilishi katta madaniyat yutug'i bo'ldi. “Ensiklopediya” nafaqat insoniyatning muhimi ilmiy yutuqlarini tartibga soldi, balki yangi madaniy qadriyatlar tizimini ham tasdiqladi”.

Yevropa va Shimoliy Afrikaning ko'plab mamlakatlarida XIX asrning o'rtalarida industrialashtirish yoki sanoat burilishi nihoyasiga yetdi. “Oddiy to'quv dastgohi “Jenni”dan J.Uattning bug' mashinasi (1784 y) va R.Fultonning bug' kemasi, Stefensonning parovozidan (1814) birinchi yer osti temir yo'liga (1863) o'tilishi injenerlik fikrining o'sishini ko'rsatdi. Bug' va elektrlashtirish, telefon va telegraf davri, astronomiya, geologiya, biologiya, ximiya sohalarida ajoyib kashfiyotlar bo'lgan vaqt insoniyat madaniyatini yangi bosqichga ko'tardi. P.Sorokinning xulosasi bilan aytganda “...faqat birgina XIX asrdagi kashfiyot va yangiliklarning o'zi oldingi asrlardagi kashfiyotlarning hammasini jamlagandan ham ko'pdir».

«Renessans» – «uyg'onish davri» termini ko'p hollarda Italiyada boshlanib keyinchalik butun Yevropaga tarqalishi bilan bog'lanib keladi. Ammo, shuni unutmaslik kerakki, uygonish davri Markaziy Osiyoda Yevropaga nisbatan besh yuz yil avval boshlangan.

Tabiiyki, Markaziy Osiyo uyg'onish davri xaqida gap ketganda dinning bo'lgan ta'sirini hisobga olmay ilojimiz yo'q. Islom shu davr ijtimoiy-siyosiy hayotining ma'naviy asosi bo'lib xizmat qilgan.

Markaziy Osiyoni arablar bosib olgandan so'ng, Yaqin Sharqning Movarounnahrğa bo'lgan ta'siri yanada kuchaydi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bu davrda Markaziy Osiyo madaniyati rivojlangan, gullagan davlat edi. Cho'ldan kelgan arablar uchun bunday diyor jannat bilan teng bo'lgan.

Markaziy Osiyoning tabiiy boyliklarini, rivojlangan madaniyatini ko'rib dovdirab qolishadi. Aytib o'tish joizki, islom dini Markaziy Osiyoda katta qiyinchiliklar bilan tarqaladi. Taniqli tarixchi Narshaxi ta'kidlashicha, arablar harbiy boshlig'i Qutayba ibn Muslim 3 marotaba tub aholini islom dinini qabul qilishga majburlagan, ammo, buxoroliklar har gal bosh tortishib o'z an'analarini davom ettirishgan. Qutayba to'rtinchi urinishdagina Buxoroni jang bilan qo'lga kiritgan. Shundan so'nggina, islom dini turli yo'llar yordamida xalqqa singdirilib, uning qudrati ko'rinadi.

Ibn Qutayba tub aholining ijtimoiy, madaniy, maishiy, siyosiy hayoti ustidan qat'iy nazorat o'rnatdi. Uning farmoyishi bilan ko'pgina masjidlar qurdiriladi, jamoa bo'lib toat-ibodat qilish yo'lga qo'yiladi.

Islom dinini qabul qilib toat-ibodatlarga qatnashgan musulmonlarga pul va sovg'a-salomlar tarqatilgan, soliqlardan ozod etilgan, davlat ishlarini boshqarish kabi takliflar qilingan.

Arablar bosib olingan davlatlarda islom dinini qat'iylik bilan tarqatib, bu din qonun-qoidalariga to'liq amal qilishni talab qilishgan. Ular, Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy hayoti ustidan kuchli nazorat o'rnatishgan. Yuqoridagilarning hammasi natijada "arab-musulmon madaniyati"ni shakllantirib, rivojlanishiga olib keldi. Olimlarning tan olishi bo'yicha, islom dini adabiyot, madaniyat, ilm-fan, falsafa, odob-ahloq kabi ko'pgina sohalarga o'z ta'sirini o'tkazdi. Bir so'z bilan aytganda, Markaziy Osiyo xalqlarining mavjud ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotiga islom dini asos bo'lib xizmat qildi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Movarounnahr aholisi tarkibi turli xil bo'lib, turkiy xalqlardan tashqari bu yerda xitoy, eron, Hind va boshqa millatlar mavjud bo'lgan. Markaziy Osiyoning xalifalik tarkibiga kirishi Movarounnahr boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar olib borish uchun qulay vaziyat edi.

Buxoro, Samarqand, Xorazm, Marv shaharlari ilmiy, madaniy markazlarga aylandi. Movarounnahr xalqi Ozarbayjon, Xuroson, Tobariston, Andalus kabi mamlakatlar xalqi bilan aloqalar o'rnatdilar. Turkiy xalqlar namoyondalari Misr, Suriya, Iroq kabi o'lkalarda yashash jarayonida ilm-fan va ma'rifat sirlarini, erishilgan madaniyat yutuqlarini o'zlashtirib borishdi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, islom dini arab xalifaligiga kiruvchi barcha aholining ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy xayotini to'liq boshqarib turgan.

Ko'p tillilikning mavjud bo'lishi bu tarixiy davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri xisoblanadi. Shuningdek, mavjud madaniyat arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan. Vaqt o'tishi bilan ushbu uch tilni mukammal bilish va o'rganish barcha uchun shart bo'lib qoldi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, o'zining madaniy va aqliy salohiyatini mustaxkamlash uchun Sharq va ʻarab yutuqlarini egallashda ko'p tillilik Markaziy Osiyo xalqlari hayotida tarixiy an'ana bo'lib kelgan.

Shuningdek, tarjimonlik faoliyati xam keng yo'lga qo'yilgan. Olimu-fuzalolar, madaniyat ahllari o'zlarining asosiy faoliyatlari bilan bir qatorda grek va rim madaniyati namunalaridan tarjimalar qilib turishgan. Qaysidir ma'noda ular Yevropa madaniyati yutuqlarini targ'ib va tashviq qilishgan, desak ham bo'ladi. Aynan shu jarayonlar orqali Markaziy Osiyo mutafakkirlarining tarixiy va madaniy sohalarda olib borgan mehnatlari ko'rinadi. Shuning uchun ham, Forobiyni "muallimi soniy – ikkinchi muallim", Ibn Sinoni – «shayxur-ra'is» deb nomlashgan. Ilmiylik bilan bir qatorda tarjimonlik faoliyati bilan ham shug'ullanishni Maraziy Osiyoliklar avlodi bir necha asr davom ettirishgan.

Demak, ma'naviy-ma'rifiy madaniyat namunalari asosan arab, fors va turkiy tillarda yaratilib, arab xalifaligini ushbu 3 til butunlay egallab olgan.

Abu Mansur as-Salaabiy, Muxammad al-Murod, Abu Ahmad al Qotib, Rashiddin Muxammad Vatvat, Haydar al-Xo'jandiylar arab tilida, Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Kaykovus, Umar Xayyomlar fors tilida, Yusuf xos Xojib, Ahmad Yassaviy, Maxmud Qoshg'ariy va Sulaymon Baqirg'oniylar turkiy tillarda ijod qilishgan. Oллоhga bag'ishlab, dinga bag'ishlab yaratilgan asarlar Markaziy

Osiyoliklar ma'naviy madaniyatida alohida o'rinda turgan. Arab-musulmon madaniyatida quyidagilar chuqur rivojlantirildi: «Qur'onni yod olish, o'rganish, sharxlash, uni vo'izlik, hotiblik orqali targ'ib va tashviq etish, Muhammad salollohu alayha vasallamning hayoti va hatti-harakatlari, eng muhim ko'rsatmalari to'g'risidagi O'adislarni to'plash, sismelashtirish, sharhlash, ularning ishonchli (sahiq) isnodlarini topish, tarixlar o'qish yetakchi bo'lgan, tafsirlash tuzishga kirishilgan. Madina, Makka, Kufa, Basra, Damashq, Bog'dod va boshqa shaharlarda dastlabki musulmonchilik diniy-madaniy va me'morchilik obidalari (Baytl-O'ikma, payg'ambarlar uyi, Ka'ba ibodatxnasini – ya'ni Baytullohni ta'mirlash, masjid, maqbaralar, shahidlar qo'yilgan muqaddas joylar) vujudga kela boshlagan edi. Kufa va Basrada arab tili nahvi va sarfi maktablari, musulmonchilik jamoasining madaniy hayoti, aqidalari, marosim va talablarini o'rganish keng rivojlana boshlagan edi. Tahorat, tavof qilishning, hajga borishning son-sanoqsiz tartiblari, kiyim-kechak, shaxsiy, oilaviy hayot va jamoatchilik o'rtasida o'zini tutish, davlat arkonlari, ma'murlar bilan munosabatlar, ra'iyatning burch va majburiyatlarini ipidan-ignasigacha bayon qilish, ro'za, zakot qoidolari, ma'rakalarni o'tkazish tartibotlari ishlab chiqildi²».

O'rta asr musulmon jamiyati, davlati, oilasi, umuman ra'iyatlarning siyosiy va madaniy, ijtimoiy, ahloqiy, xuquqiy munosabatlari, dunyoviy qadriyatlari talab va majburiyatlariga siyosiy, xuquqiy, diniy asoslar yaratib berildi.

Xulosa, Sharq Uyg'onish davri madaniyati ham o'zining gumanistik g'oyalarni shakllanishi bilan G'arb Uyg'onish davri bilan uyg'unlikda namoyon bo'ldi.

¹ Falsafa: O'quv qo'llanma. E.Yusupov taxriri ostida. T., 1999 y., 64-bet.

1.2. Sharq va G'arb Uyg'onish davrida madaniy taraqqiyot

XIV asrdan e'tiboran Yevropada Renessans davri boshlandi. Tabiiyki, bu ijtimoiy-tarixiy jarayon Yevropaning turli mamlakatlarida turlicha kechdi. Boshqacha aytganimizda, Renessans davri, mutaxassislar-ning fikriga ko'ra, Yevropada uch asosiy bosqichni: ilk bosqichni (XIV asr), yetuklik bosqichini (XV asr) va so'nggi (XVI asr) bosqichni bosib o'tdi. Renessans, ya'ni Uyg'onish davri o'zining ilk bosqichida butun Yevropani emas, balki uning eng rivojlangan mamlakatlarini qamrab oldi. Xuddi shuning uchun ham Renessans davri ilk bosqichlarining izlari qadimgi Italiyaga borib taqaladi².

Renessans g'oyalari Italiyada XII asrdayoq vujudga kelgan edi. Xuddi shuning uchun ham Renessans o'zining ilk bosqichida sof «italyancha voqea» edi. O'z taraqqiyotining yetuk bosqichida u butun Yevropaga xos xususiyat kasb etdi. Bu paytda Yevropaning bir qator rivojlangan mamlakatlarida hunarmandchilik va savdo-sotiq tezlik bilan rivojlana boshladi. Kishilarning shahar tomon intilishlari kuchaydi. Jamiyat hayotida shaharlarning o'rni va ahamiyati o'zluksiz ortib bordi. Yangi iqtisodiy munosabatlar qaror topishi bilan birgalikda, kishilarning turmush tarzida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi.

Renessans davri o'ziga xos yangi madaniyatni yaratdi. Ushbu madaniyat nafaqat dinga, balki ilm va fanning ilg'or yutuqlariga tayana boshladi. Oqibatda, Renessans davrida Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida inqilobiy madaniy o'zgarishlar ro'y berdi. Chunonchi, birinchi kitob nashr etiddi, Kolumb tomonidan Amerika kashf qilindi, Vasko da Gama Afrikani aylanib utib, Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochdi, Magellan O'zining uzoq davom etgan sayohatiga asoslanib, Yer kurrasining sharsimon ekanligini isbotladi, geografiya va kartografiya fan sifatida e'tirof etildi, matematikada simvolik belgilar qabul qilindi, ilmiy anatomiya va fiziologiya asoslarini fan sifatida o'rganip boshlandi, ximiya va astronomiyada yirik yutuqlarga erishildi. Bir ibora bilan aytganda, Renessans davrida Yevropaning kup mamlakatlari madaniy hayotida tub o'zgarishlar ro'y berdi.

² История философии в кратком изложении. Перевод с чешского И.И. Ботуга, – М., 1991, стр. 574.

Renessans Yevropa tarixining shunday bir davriki, bu davrga kelib xristian dini o'zining monolit mavqeini yo'qota boshladi. Aniqroq qilib aytganimizda, ijtimoiy turmushning barcha jabhalarida cherkov diktaturasi sindiriddi. Bunday keskin burilish faqat falsafada, san'-at yoki adabiyotda emas, eng avvalo, xristianlshshing o'zida ro'y berdi. Boshqacha aytganimizda, Yevropaning bir qator mamlakatlarida sekulya-rizasiya jarayoni boshlandi. Sekulyarizasiya (jamiyat hayotiga umumiy ta'sirning kamayib borishi) jarayonining sodir bo'lishi kishilar dunyoqarashiga dinning ta'sirini kamaytirib yubordi. Shuningdek, sekulyarizasiya jarayoni ijtimoiy turmushning barcha jabhalariga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Oqibatda kishilarning fikrlash madaniyatida ham jiddiy o'zgarshilar ruy berdi.

Turgan gapki, fikrlash madaniyatidagi bunday keskin o'zgarish o'rta asr teokratizmiga qarshi kurash zamindda vujudga keldi va rivojlana boshladi. Tabiiy-ijtimoiy muhitda sodir bo'layetgan o'zgarishlarga in-sonning intellektual-aqliy imkoniyatlari nuqtai nazaridan qarash ro'y bera boshladi.

Kishilar fikrlash madaniyatida gumanistik va antroposentrik qarashlarning ustuvorlik qilishi ularni antik madaniy merosga bo'lgan qiziqishlarini ortirib yubordi. Bunday tendensiyaning rivojlanib borishi o'z navbatida antik falsafa namoyandalarining asarlarini o'rganishga bo'lgan intilishni ham kuchaytirdi. Qadimgi yunon faylasuflari Platon va Aristotel falsafasi qayta tahlil qilina boshlandi. Neoplatonizmga, stoiklar falsafasiga, Epikur va Siseron qarashlari-ga qiziqish kuchayib ketdi.

Renessans, eng avvalo, antik zamon madaniy, xususan falsafiy mero-si haqida erkin fikr yuritish, har qanday qoidalarni o'zgarmas, mutlaq haqiqat deb qarashdan voz kechish, insonda mavjud bo'lgan kobiliyat, malakalarni erkin namoyish qilish uchun vujudga kelgan imkoniyat edi. Xuddi shuning uchun ham olimu fozillar, xususan faylasuflar «yopiq maktablar» namoyandalari emas, balki mustaqil tadqiqotchi sifatida harakat qila boshladshgar. Har bir tashkilotchining o'ziga xos bayen qilish, ilmiy-falsafiy asarlarni o'zi taxdil qilish, voqelikni ravon, ommabop tidda tasvirlash uslublari vujudga keddi. Bunday uslublari o'tmish falsafiy adabiyotlarining sxolastik bachkanalikka asoslangan murakkab bayon qilish

uslubiga zid edi. Bir ibora bilan aytganda, Renessans davri falsafasi voqea va hodisalarni chinakamiga real tavsiflashga va shuningdek, amaliy masalalar yechimini topishga e'tiborni qaratdi.

Renessans madaniyatining asosiy tashviqotchilari shahar aholisi-ning yuqori tabaqa vakillari, yirik ishbilarmonlar, meshchanlar, yuqori ma'lumotga ega bo'lgan cherkov va monastir xodimlari edi. Insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qilgan bunday targibotchilarnint ko'pchiligi lo-tin tilini mukammal bilgan va antik madaniyat, xususan falsafiy meros bilan yaxshi tanish kishilar edilar. Bir ibora bilan aytganimiz-da, Renessans madaniyatining mag'zini insonparvarlik g'oyalari tashkil etadi.

Renessans davri madaniyati, xususan, uning falsafasi insonning eng oliy qadriyat ekanligini har tomonlama isbotlashga urindi. Xuddi shu davrga kelib ijtimoiy munosabatlarni baholashning yangi – insonlik mezoni vujudga keddi. Insonning insoniyliga ajdodlar yarat-gan madaniy-ma'naviy merosni o'zlashtirish kobiliyati bilan belgila-nadi. Shuningdek, Renessans davri madaniyati, xususan, falsafasidagi eng muhim an'ana olamni teosentrik tushunishdan antroposentrik tushushiga o'tilgani edi. Ushbu inqilobiy o'zgarish, shubhasiz, o'ta murakkab jarayon bo'lib, turli ziddiyatlarga to'la edi. Xususan, Renessans madaniyatini shodu xurramlik bilan quvvatlovchi shahar aholisining yuqori tabaqalari bilan uning o'rta va pastki qatlamlari orasida turli siyosiy ziddiyatlar, kelishmovchiliklar mavjud edi. Chunonchi, jamiyat-ning yuqori tabaqalardan biri bo'lgan meshchanlar davlat apparatini, cherkovni reformasiya, ya'ni isloh qilish yordamida tovar-pul munosa-batlarini barqarorlashtirmoqchi va uni kengaytirmoqchi bo'lsalar, aholi-ning o'rta va past tabaqasi vakillari jamiyatni yana o'rta asr tartibotlariga rioya qilishga da'vat etardilar. Xuddi shuning uchun ham Renessans Yevropaning turli mamlakatlarida turli darajada rivojladdi, turli modifikasiya va shakllarda namoyon bo'ldi.

Bunday turlitumanliklar oqibati ularoq Renessans madaniyati bilan reformasiya, ya'ni isloh qilish orasidagi o'zaro aloqadorlik mexanizmini baholashda yevropalik mutaxassislar orasida turlicha fikr va mulohazalar uchrab

turadi.¹ Chunonchi, ba'zi birovlar Renessans xalqaro, ya'ni umumevropa ahamiyatiga molik voqea, reformasiya, ya'ni isloh qilish esa faqat milliy (nemislarga xos) voqea deb ishontirmoqchi bo'ladilar. Shunday bo'lishiga qaramasdan, Renessans va reformasiya haqida bahs-munozara yurituvchilarning barchasi ikki yirik voqea ora-sida umumiylik, o'xshash tomonlar bor ekanligini bir ovozdan ma'qul-laydilar. Chunki, ikkala voqea ham jamiyatdagi odamlar turmush tarzida eskicha tartib-intizomlarga karshi edi. Bunday umumiylik, o'xshashlik asosida odamlar turmush tarzida yangacha madaniyatni, tartib-intizomni, shakllantirish yotar edi.

Ko'rinib turibdiki, Renessans insoniyat bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot yo'lining eng muhim davrlaridan biridir. Bu davr jahon sivilizasiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan hamмага ayon. Modomiki shun-day ekan, Renessans davri Yevropa falsafasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Yuqorida eslatib o'tganimizdek, Renessans davrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri va eng muhimi, kishilarda yangicha fikrlash madaniyatining shakllanganligi bilan karakterlanadi. Yangicha fikr yuritish madaniyati antik zamon, o'rta asr fikrlash madagashtidan mutlaqo farq qilar edi. Chunki, Renessans davri fikrlash madaniyati cherkov tomonidan joriy etilgan urf-odat va rasm-rusumlarga zarba bera boshladi, ayrim hollarda unga qarshi chiqdi. O'z navbatida, Renessans davri fikrlash madaniyati o'rta asr fikrlash madaniyatining natijasi va uning yakuni edi. Xuddi shuning uchun ham Renessans davrining falsafasi o'rta asr falsafasiga xos xususiyatlarning mavjudligi bilan antik zamon fikrlash madaniyatidan tubdan farq qiladi.

Renessans davri dunyoqarashining antik zamon va o'rta asrlar davri dunyoqarashidan farq qiladigan eng muhim xususiyatlaridan yana biri uning san'atga asoslanganligidir. Agar o'rta asr madaniyatining negizida din yotgan bo'lsa, Renessans davri dunyoqarashining markazida badiiyyestetik did (yo'nalish) ustunlik qiladi.

«Shuningdek, o'rta asr sharoitida kishilar orasidagi o'zaro munosabatlarda ularning qaysi tabaqa va guruhga, qanday kasbga mansubligi yoki din bilan

aloqadorligi muhim ahamiyatga ega edi»¹. Shuning uchun ham kishilar dunyoqarashida guruh yoki tabaqa, kasbhunar yoki din nuqgai nazari, ehtiyoji, manfaati hukmronlik qilardi. Renessans davriga kelib, har bir kishining o'zi mustaqil fikr-mulohaza yuritadigan bo'ldi. Endi har bir kishi nafaqat guruh yoki din, balki o'z nomidan ham gapiradigan bo'ldi. Mustaqil fikr yuritishning vujudga kelipga ularning ijtimoiy turmushdagi pozitsiyasini ham o'zgartirib yubordi. Kishilar faoliyatida o'z kuch-quvvati va qobiliyatiga ishonish, magrurlik kabi xislatlar mustahkam o'rin egalladi. Bir so'z bilan aytganda, Renessans davri jahon sivilizatsiyasini o'ziga xos layoqat, qobiliyat va iste'dodga ega bo'lgan burch, individuallik bilan boyitdi.

Renessans davridagi inson ideali qomusiylik, har tomonlamalik bilan boyitildi. Dehqon uy qurar, tegarmon yuritar, kanal qazir, kuprik. qurar, yer haydar, ekin ekar, olingan hosilni o'zi qayta ishlar, zarur mehnat qurollarini ham o'zi yasar edi. O'zining kundalik turmushi uchun zarur bo'lgan barcha bilimlarni ham o'zi sabr-toqat bilan o'rganar-di. Xullas, Renessans davridagi inson O'zining bunyodkorlik, yaratuvchi-lik faolilti bilan o'rta asr kshpisidan tubdan farq qilar edi. Bunday tendensiyaning Renessans davrida ijob qilgan xristian faylasuflari-ning asarlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Renessans davrida Yevropada dastlabki gumanistik g'oyalar italiyalik faylasuflar Dante Aligyeri (1265–1321 yillar), paduyalik Marsi-liy (1278–1348 yillar), Franchesko Petrarka (1304–1374 yillar), Jo-vanni Bokachcho (1313–1375 yillar), Georgios Gemistos (1360–1425 yil-lar), Marsilio Fichine (1422–1495 yillar), Piko Della Mirandola (1463–1495 yillar) asarlarida bayon qilindi.

Renessans davridagi inson antik zamon va o'rta asr kishisidan o'z faoliyatini hech qanday taqiqlarsiz bajarish imkoniga ega bo'lgani, o'z turmush tarzini o'zi belgalay olishi, o'ziga-o'zi hukmronlik qshgash imkoniga ega bo'lgani bilan ajralib turadi.¹ Endilikda insonga o'zini-o'zi yaratish imkoniyati hadya etildi. O'z navbatida, xuddi o'sha o'zini-o'zi yaratish qobiliyatiga ega bo'lganligi bilan inson

¹ История философии в кратком изложении. Перевод с чешского И.И. Богута.– М.1991, стр. 574-575.

boshqa tirik mavju-dotlardan tubdan farq qilishini ham zinhor unutmaslik kerak. Insonda o'zini-o'zi yaratish qobiliyatining rivojlana borganai o'z navbatida uning tabiat ustidan hukmronligini ham mustahkamlayverdi. Antik zamonda yashagan inson tabiatni o'z xo'jayini deb qaraydigan bo'lsa, Renessans davriga kelib butun tabiat ustidan uning o'zi hukmronlik qiladigan bo'ldi. Insonga bunday imkoniyatni Xudoning o'zi hadya qildi. Xudo tomonidan insonga berilgan o'z taqdirini o'zi belgilash imkoniyatlari o'rta asrga kelib inson borlig'ida mavjud bo'lgan nodonlikpar tufayli asta-sekin yemirilib bordi. Renessans davriga kelib xuddi o'sha imkoniyatlar yana qayta ko'rib chiqila boshlandi. Endilikda inson o'z taqdirini o'zi yarata olishiga, tabiatning chinakam egasi bo'li-shiga ishonch hosil qila boshladi. Xuddi shuning uchun ham Uygonish davrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – insonning olamdagi jamiki mavjusot, hatgo, o'zining ustidan ham hukmdorligi orta borgan bilan izohlanadi. Bunday holat antik zamonda ham, o'rta asrlarda ham vujudga kelmagan edi. Shuning uchun ham rassom uchun yaratuvchi-bunyodkorning jismi Renessans ramzi, belgisi darajasiga kutarildi.

Renessans davrida insonning barcha jabhalardagi faoliyati antik zamon yoki o'rta asrga nisbatan o'zgacha talqin etildi. Ma'lumki, qadimga yunonlarda mushohada qilish, fikr yuritish barcha faoliyat turlaridan ustun quyilar edi. Chunki fikrlash, mushohada qilish (yunoncha «teoriya»), bir tomosdai, insonni tabiat sirlari bilan oshno qilsa, shjinch tomondan, uni mustaqil fshflash dunyosiga olib kiradi va u bilan qurollantiradi. Renessans davrida inson faoliyatiga baho berish ham o'zgacha bo'ldi. Chunonchi, mehnat (hatto, qulning jismoniy mehnati ham) har qanday gunohlarni yuvish vositasi, deb hisoblandi. Ayniqsa, inson qalbini poklovchi mehnat faoliyatning eng oliy shakli deyildi. Qalbni poklovchi mehnat, ya'ni Muqaddas kitoblarni uqish yaratuvchanlik imkoniyatlarini vujudga keltiradi, deb tushuntirildi. Inson ijodiy mehnatining qadr-qimmati kundan-kunga ortib boraver-di. Boshqacha qilib aytganimizda, insonning faoliyati Renessans davrida eskilikka zarba berish, eskilikni yakson qilish harakteriga ega bo'ldi. Uning yordamida inson nafaqat yer ishlariga oid ehtiyojini, balki o'z-o'zini ham o'zgartirdi.

Ilm-fanga e'tibor kuchaydi. Amaliyot bilan fan orasidagi chegara ham o'zgara boshladi. O'rta asr sharoitida amaliy-texnik faoliyat bilan faol orasida ma'lum bir chegara bo'lib, ular «san'at» va «badiiy fantaziya» deb nomlanardi. Renessans davrida, yuqorida ta'kidlaganimizdek, xuddi usha chegara yo'qoldi. Muhandis va rassom nafaqat antik va o'rta asr zamonasiga xos san'atkor, texnik, balki chinakam ijodkor-yaratuvchi darajasiga kutarildi. Ijodkor tadqiqotchilar Xudo tomonidan taqdim etilgan tabiiy hodisalarning ichki tuzilishidagi o'zaro aloqadorlik qonuniyatlarini bilishga intildilar. Fanda bunday holatni Kepler, Galiley, Kavalyeri ijodida uchratamiz.

Inson shaxsi to'g'risidagi fikr-mulohazalar Renessans davrida yanada yuksaklikka ko'tarila boshladi. Endilikda inson shaxsining qadr-qimmati har tomonlama osha boshladi. Shuningdek, ozod fikrlash imko-niyatiga ega bo'ldi. O'zining teranlashib borayotgan aql-farosatidan, go'zal-lashib borayotgan tanasining imkoniyatlaridan madad qidirdi. Xuddi shuning uchun ham Renessans davrining ashroposentrizmi go'zallikni ulug'lashi bilan ajralib turadi. Badiiy tasvirlarda go'zal inson qiyofasini, ayniqsa, uning tashqi qiyofasining latofatini tasvirlash o'sha davr san'atining bosh mavzui edi. Bunday holatni Renessans davrining mashhur naqqoshu musavvirlari – Botichelli, Leonardo da Vinchi, Rafael asarlarida ko'rish mumkin.

Renessans davri adabiyoti va san'atida har qachongidan ko'ra yakka kishi shaxsiga e'tibor kuchaydi. Antik zamonda ham, o'rta asrlarda ham inson deb nomlanuvchi tirik mavjudotga bu qadar e'tibor bo'lmagan edi. Bu davrga kelib, har bir kishining o'ziga xos qobshshyatlari, mala-kalari hamma narsadan ustun qo'yildi. Buyuk shaxslardagi takrorlanmas iste'dodga e'tibor kuchaydi. Bunday holat Renessans davrida shaxs de-gan tushunchaning rasman shakllanishiga turtki bo'ldi. Shaxs tushunchasi individ tushunchasi bilan bab-barobar ishlatila boshlandi. Shuningdek, Uyg'onish davri adabiyotlarida shaxs deganda kishining xatga-harakatla-ri, xulq-atvoridagi mas'uliyatni sezish qobiliyati tushunildi. Ushbu davr mutafakkirlarining tushuntirishlaricha, individuallikning har tomonlama ulug'lanishi, uning ortib borishi hamisha ham inson shaxsi-ning rivojlanishiga mos

bo'lib tushavermaydi. Shaxsning estetik didi, axloq-odobiga xos qirralarining rivojlanishi ham bir-biriga hamo-hang bo'lishi zarur. Chunonchi, XV–XVI asrlarda individuallikning har tomonlama rivojlanishi ayrim hollarda xudbinlikning ortab borishi-ga olib keldi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, o'rta asr ta-fakkuri tarzidan farqli o'laroq, Renessans davri falsafasida yangi gumanistik yo'nalishlar vujudga keldi. Insonshunos olimlar, shoiru yozuvchilar asarlarida inson bilan tabiat, shaxs bilan jamiyat orasida-ga aloqadorlik muammolarini o'rganish bosh mavzuga aylandi. Gumanis-tik falsafa vakillari har tomonlama rivojlangan shaxs g'oyasini olg'a sura boshladilar.

Dante – ilk Renessans davrining buyuk shoiri, ttublisisti, faylasuf va siyosiy arbobidir. Yoshligida diniy maktabda o'qigan, ba'zi ma'lumotlarga qaraganda Bolonya universitetida saboq olgan. Umri davomida falsafa, axloq, ilohiyot, tarix va mantiq ilmlarini chuqur o'rgandi. Dante ilmiy dunyoqarashi-ning shakllanishida nafaqat Yevropa mutafakkirlari, balki Sharq fay-lasuf-lari, xususan Forobiy, Ibn Sino va Ibn Rushdlar yaratgan falsa-fiy ta'limotlarning ham hissasi beqiyos bo'ddi¹.

Dante Florensiyaning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etdi. 1302 yilda Florensiya ijtimoiych;iyosiy hayoti shohsupasiga «qoralar» ko'tarilishi bilan shoir o'z ona shahridan uzoq yurtlarga surgun qilin-di. Hayotining so'nggi 19 yilini sarson-sargardonlikda o'tkazdi va 1321 yil 14 sentyabrda Rovennada vafot etdi.

Dante jahon madaniy merosi xazinasini «Yangi hayot», «Falsafa yordamida ovunish haqida risola», «Bazm», «Monarxiya», «Ilohiy kome-diya» kabi asarlari bilan boyitdi. Ayniqsa, Sharq madaniyati, xususan Sharq falsafiy tafakkuri bilan Yevropani tanishtirishda Dantening xizmatlari beqiyos bo'ldi.

Uning sevimli mahbubasi Beatrichega bagashlagan «Yangi hayot» she'-riy tuplamida (1291–1292 yillarda tuplam holiga keltirgan) Ibn Sino va Ibn Rushdning sharqona an'analarini davom ettirib, chinakam ishq va muhabbat, vafo va

¹ Sulaymonova F. Sharq va G'arb. Toshkent, 1997, 346–400-betlar; Komilov N. Tafakkur karvonlari. Toshkent, 1999, 56–120-betlar.

sadoqatni e'zozlaydi. Muhabbatning chinakam in-soiiy fazilat, oliy axloq, odob, umuman insonga xos bo'lgan eng oliy xususiyat ekanligini ta'kidlaydi. Ishq-muhabbatning shakllanishi va rivojlanishi jarayonini tushuntirib berishga harakat qiladi, uni har tomonlama e'zozlashga chaqiradi.

Dante 1304–1308 yillarda quvg'inda bo'lgan kezlarida o'zishshg yi-rik ilmiy-falsafiy asarlaridan biri «Bazm» va badiiy-filologik asari «Xalq nutqi»ni yozadi.

«Bazm» o'rta asr falsafiy tafakkurining yirik qomusiy asari hisoblanadi. Dante bu asarida, eng avvalo, o'z zamondoshlari va maslak-doshlarini falsafani har tomonlama chuqur o'rganishga chorlaydi. Falsafiy merosdan xabardor bo'lishni har bir fuqaroning insoniy burchi, deb hisoblaydi. Dante «Bazm»da inson muammosini, ayniqsa, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanish jarayonini tahlil qilishga katga e'tibor beradi. Shoirning fikriga ko'ra, har bir kishining ma'naviy-axloqiy qiyofasi jamiyatning madaniy darajasini belgilaydi. Dante o'rta asr ta'limotlariga zid ularoq axloqni hamma fanlardan, hatto, metafizikadan ham ustun qo'yadi.

Dante O'zining «Bazm» asarida insonning insoniyligini aniqlov-chi mezonlarni yaratishda urinadi. Uning fikriga ko'ra, insonning in-soniyligini ifodalovchi eng muhim xususiyat saxiylik, olijanoblik-dir. Shoirning tushuntirishicha, inson umri turt asosiy faslni bosib o'tadi: birinchisi yoshlik, u issiqlik va namlikka monand; ikkinchisi balog'at, unga issiqlik va quruqlik xos; uchinchisi keksalik, unda sovuq va quruqlik bor; to'rtinchisi qartayish, unda sovuqlik va namlik bor¹. «Bazm»da e'tirof etilishicha, inson tabiat sirlarini bilshpga qodir. Xuddi shuning uchun ham inson doimo bilimga intiladi, unga ehtiyoj sezadi. Bilim ruhimizning oliy xususiyati va inson uchun bilim olish eng yuksak lazzatdir, deydi Dante.

Dante 1312–1313 yillarda «Monarxiya» nomli asarini yozdi. Unda o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini bayon qiladi. U cherkov va Rim papasini davlatni idora qilish ishlariga aralashmasligi zarur, deb hisoblaydi va adolatli hukmdor

¹ Sulaymonova F. Sharq va G'arb. Toshkent, 1997, 364-bet.

boshchiligida yagona dunyoviy davlat qurish g'oyasini ilgari suradi. Siyosiy tarqoqlik tufayli jabr-zulm ko'rgan Italiya xalqlarini birlashtirib, urushlarni yuq qiluvchi tu-zum – jahon imperiyasi urnatish haqidagi g'oyalarni targ'ib qiladi. Turli hududlarda yashovchi, turli diniy maslakdagi kishilar orasida ham qandaydir bir yaqinlik, o'xshashlik, umumiy tomonlar, bir ibora bilan aytganda, umuminsoniy fazilatlar bor, degan xulosaga keladi. Yevropa tarixida birinchilardan bo'lib «umuminsoniyat» tushunchasini badiiy-falsafiy adabiyotga olib kirdi. Xuddi shuning uchun ham xristi-an dini ulamolari Dantening «Monarxiya» asarini kuydirish, asar muallifining xokini qabrdan chiqarib tashlashni Italiya hukmdorlari-dan talab qila boshlaydilar. Ammo Ravenna hokimi Danteni himoya qiladi.

Dantega shon-shuhrat keltirgan buyuk asari – «Ilohiy komeddy»-dir. Asar nafaqat uning g'oyaviy-siyosiy qarashlarining yakuni, badiiy tafakkurining toji bo'lib qolmay, umuman o'rta asr madaniyatining yakuni edi. Ayni paytda Yevropa badiiy adabiyotining kelajakdagi yo'lini aniqlab beruvchi yirik ahamiyatga molik ijtimoiy voqea edi.

DANTE ijodida ilohiylik va insoniylik. Olamning haqiqiy manzarasi, uning borlig'i va birligi, ayniqsa, inson vafoti-dan keyin uning taqdiri haqidagi muammolar, din ahlini ham, fayla-suflarni ham hamisha bezovta qilib kelgan. Ushbu muammolar yuzasidan har bir din o'z nuqtai nazarini bayon etgan. Chunonchi, xristian dini namoyandalarining tushuntirishlaricha, kishilar bu dunyodagi o'z qilmish-lari evaziga narigi dunyoda rag'batlantiriladilar yoki jazolanadilar. Chunonchi, bu dunyoda taqvodorlik qilganlarning ruhi jannatda orom topadi. Yomonlik, tubanlik qilgan kimsalar do'zax azobiga giriftor bo'ladilar. Xuddi ana shu jarayonni Dante o'zining «Ilohiy komediya»si orqali tasvirlab berishga harakat qildi.

Shoirning fikriga kura, narigi dunyo do'zax, a'rof va jannatdan iborat. Mutafakkirning tushuntirishicha, narigi dunyoning tuzilishi (strukturasi) o'ziga xos qonun-qoidalar asosida vujudga keladi. Bu yerda bo'ladigan o'zgarishlar ham qonun-qoidalar asosida ruy beradi. Chunonchi, odamlar bu dunyodagi

xizmatlariga, ya'ni xulq-atvori va xatti-harakatlariga qarab narigi dunyodan joy oladilar. Bu dunyoda qilgan ishlariga yarasha u dunyoda jazo oladilar yoki rohat-farog'atda bo'ladilar. Xususan, kimdir jannatdan, kimdir do'zaxdan joy oladi.

Dantening «Ilohiy komediya»si o'rta asr adabiyotida keng tarqalgan narigi dunyoni xayolan ko'rish, bashorat qilish janrida yozilgan. Dante bu adabiy janrdan insoniylikni ulug'lash va yer kurrasidagi barcha kishilar o'rtasidagi munosabatlarni yanada yorqinroq tasvirlashda foy-dalandi. Dante insonni bu dunyodan bezdirmoqchi emas, aksincha, hayotning go'zalligini tushunishga, uni chinakamiga sevishtirishga, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, xalq, vatan manfaatini himoya qilishga, uni ko'z qorachig'idek saqlashga chaqiradi. Danteni hayotning go'zalligi, uning ma'no va mazmunini insonparvarlashtirish qiziqtiradi. Shoir inson hayotining ma'nosi va mazmunini yanada serjilo qilish, uni har tomonlama takomillashtirish maqsadida bu dunyoda umrini ma'nosiz va mazmunsiz o'g'kazgan, butun umrini yomonlikka, qabihlikka baxshida etgan, birov-larga hech qachon yaxshilikni ravo kurmagan, jinoyatchi, gunohkor kimsalarni, xalq manfaatiga zid ish qilgan hokimu boshliqlarni, din aqida-laridan o'zining shaxsiy manfaati yo'lida foydalangan riyokor ruhoniylarii, bir ibora bilan aytgaqda, o'z siyosiy muxoliflarini do'zaxga joylashtiradi va ular ustidan hukm chiqaradi.

«Ilohiy komediya»ning «Do'zax» qismi hayotiy ziddiyatlarni to'la aks ettirganligi bilan «A'rof», «Jannat»dan ajralib turadi. «Do'zax»da tasvirlangan voqealar Renessans davri Italiyasi hayotining aksi (ko'rinishi) edi. Aniqroq qilib aytganimizda, «Do'zax»da sodir bo'layotgan voqealar Dante zamondoshlarining xatolari edi.

Dantening tasvirlashicha, narigi dunyoning ikkinchi qismi – a'rof ham to'qqiz qavatdan tashkil topgan. A'rofga bu dunyoda bilib-bilmay, yengil-yelpi gunoh qilib qo'ygan kishilartgag ruhlari joylashtiriladi. Bu yerda orom topganlarning asosiy qismi shoir, rassom, bastakor va umuman ijodiy mehnat bilan shug'ullanganlardir. Chunonchi, a'rofning birinchi qavatida mutakabbirlar, ikkinchisida hasadgo'ylar, uchinchisida jahladorlar, turtinchisida ma'yuslar, beshinchisida xasis va isrofgarchilikka yo'l quyganlar, oltinchisida ochko'z va

badnafslar, yettinchi-sida dunyoviy muhabbatga berilganlar joylashganlar. Sakkizinchi va to'qqizinchi qavatlar esa a'rofdan jannatga utuvchi buyuk maskan vazifasini bajaradi.

Jannat ham do'zax va a'rof kabi to'qqizlik asosida qurilgan. Jannat yer yuzida joylashgani uchun uning atrofini to'qqiz osmon o'rab turadi. Chunonchi, birinchisi – Oy, ikkinchisi – Utorud (Merkuriy), uchinchisi – Zuhro (Venera), turtinchisi – Quyosh, beshinchisi – Mir-rix (Mars), oltinchisi – Mushtariy (Yupiter), yetginchisi – Zuhul (Saturn), sakkizinchisi – turgun yuldo'zlar, to'qqizinchisi – arshi a'lo farishtalar makonidir. Do'zaxga zid o'laroq, jannatda doim harakat ustuvorlik qiladi. Jannat osmonlarining hammasida yoruglik, nur, ruhiy kamolot hukmronidir.

Dante Jannatning turli osmonlarida eng yaxshi, olijanob, xalqi, vatani, millati uchun xizmat qilgan kishilarni joylashtiradi. Chunonchi, Oy osmonida oshikdar, ishq-muhabbat shaydolari, Utorudda faol, fidoyi odamlar, Zuhroda saxiy, oliyhimmat kishilar ruhini, Quyoshda insof va diyonatda tengi yo'q ruhoniylar, faylasuflar, tarixchilarni, Mirrixda shoir o'z bobokaloni Kichagvidani, Mushtariqda Iso payg'am-barning sahobalarini, Zuhalda Odam Ato, turg'un yuldo'zlarda avliyolar, maloiklarni joylashtiradi¹/ Ko'rinib turibdiki, bu dunyoda qilgan barcha xayrli ishlariga, yaxshilik, ezgulik, insof-diyonatga chorlovchi xulq-at-voriga, xatti-harakatiga qarab odamlar narigi dunyodan, xususan, jan-natdan o'rin egallaydilar.

Xullas, jannatdagi axloqiy poklik, bu yerda abadiy qo'nim topgan ruhlar xulq-atvori, xatti-harakatidagi aqliy zukkolik Dante orzu qilgan mamlakat, jamiyat fuqarolarining ruhiy-ma'naviy qiyofasi edi.

Dante narigi dunyoning xayoliy kartinasini chizish uchun nafaqat Isoviya, balki qadimgi Eron va Turonda keng tarqalgan zardushtiy-lik, islom ta'limotlaridan ham keng foydalandi. Narigi dunyo, xu-susan do'zax, a'rof va jannat haqidagi fikr-mulohazalari Sharq va G'arb madaniyatining bir-biriga yaqinlashuvi va qushiluvining nati-jasi edi.

¹ Sulaymonova F. Sharq va G'arb. Toshkent, 1997, 377–378-betlar.

DANTE falsafiy-adabiy merosining ahamiyati. Shunday qilib, Dante Aligyerining falsafiy-adabiy merosi ajib bir yaxlitlikni tashkil etadiki, u merosda Renessans davrining yangi, ilg'or fikrlash madaniyati o'z ifodasini topdi. Xristian aqidalarini o'zgar-mas, mutlaq haqiqat, deb bilgan Dante ayni paytda ilohiylik va inso-niylikni, ular orasidagi munosabatlarni yangicha talqin etadi. U ushbu ibtddolarni bir-biriga qarama-qarshi qo'ymaydi, aksincha ularni yaxlit, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan birlik, deb ta'riflaydi. Xudoni inson ijodiy imkoniyatlariga qarshi qo'yib bo'lmaydi. Inson oqibat bo'lsa, uning sababi bir tomondan Xudo, ikkinchi tomondan esa tabiatdir. Shu sababli rohat-farog'atga erishishning ikki yo'li mavjud: falsafiy pandu nasihatlar, ya'ni inson aql-idroki hamda ruhiy pandu nasihat-lar, ya'ni Muqaddas Ruh o'gitlari. Insondagi ilohiylik haqidagi o'rta asr an'analariga zid mulohazalari tufayli Dante tomistlar tanqidiga duchor bo'ldi.

Dante insonparvarligi faqirona hayotni rad etadi, unda inson qudratiga ishonch mujassamlashgan. Inson o'z baxti va taqdirini o'z

quli bilan yaratadi. O'zining baxt-saodatga erishishi uchun o'zi mutasad-di, o'zi mas'ul. Buning uchun inson o'z shaxsining imkoniyatlariga tayan-mog'i lozim. Birovning boyligiga yoxud meros tufayli qo'lga kiritilgan molu mulkka ko'z tikmasligi darkor. Shuningdek, kimlarningdir ijti-moiy ahvoliga tayanib, boyishni orzu qiladigan kshdilarni qattiq qora-laydi.

Dante Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, ayniqsa, Ibn Rushd g'oyalari ta'sirida ijod qildi. Ibn Rushdning inson aql-idroki imkoniyatlari va intellektual faollik haqidagi ta'limoti bilan tanishgach, Dante insoniyatning eng muhim vazifasi aql-idrok imkoniyatlaridan yanada to'laroq foydalanish, uni kundalik amaliy faoliyatida imkoniyat boricha tezroq ruyobga chiqarish bilan bevosita bog'liq, degan xulosaga keladi. Bunday umumbashariy, umuminsoniy vazifani uddalamoq uchun din va cherkov davlat ishlariga aralashmasligi lozim. Din va cherkov insoniyat yechimini kutib kelgan «abadiy» muammolar bilan mashg'ul bo'lmog'i lozim. Kundalik turmush masalalarining yechimini topish kishilarning o'z ix-tiyorida bo'lmog'i xerak. Turgan gapki, kishilar tinchlik-

osoyishtalik, xotirjamlikka asoslangan, odamlarga baxt-saodat olib keluvchi jamiyatni barpo qilishga intiladilar.

Dantening umuminsoniy ta'limoti o'ta sodda va sxolastik dalil-larni o'zida mujassamlashtiradi. Biroq ushbu ta'limot insonda mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlar uning aql-zakovatiga bo'ysundirilishi lozim, degan g'oyasi bilan qudratlidir.

Buyuk italyan faylasufi va shoiri Franchesko Petrarka 1304 yilning 20 iyulida tavallud topgan. Uning otasi notari-us xizmatchisi edi. 1312 yidda Petrarkalar oilasi Provansga ko'chib o'tadi. Bu yerda yosh Franchesko huquq muammolari bilan shug'ullana bosh-laydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, u 1316 yilda Montelyeda, 1320 yilda Bolonyada huquq asoslaridan saboq oladi. 1326 yilda Petrarka fran-siskan ordeniga a'zo bo'ladi va minorit darajasida faoliyat ko'rsata boshlaydi. Petrarka 1374 yilning 19 iyulida Paduya yaqinidagi Arkua shahrida vafot etadi.

Franchesko Petrarka o'zidan ajoyib ilmiy meros qoldirdi. Chunon-chi, 1342–1343 yillarda lotin tilida yezilgan «Olamdan hazar qilish haqida»gi falsafiy traktati, 1374 yilda nashrga tayyorlangan «Avlod-larga maktub» avtobiografik asari, 1339–1342 yillarda lotin tilida yozilgan «Afrika» poemasi, 1327 yildan keyin yozilgan «Mening Italiyam» kansioni, shuningdek, 1346–1366 yillarda yozilgan «Yolg'izlikdagi hayot haqida»gi, 1358–1366 yillarda bitilgan «Azob va quvonchlarga qar-ssh vositalar», 1374 yilda chop etilgan «Respublika haqida»gi asarlari fikrimizning isbotidir. Ushbu asarlarda Franchesko Petrarka o'zi-ning falsafiy qarashlari, xususan olam va odam to'g'risidagi fikr-mulohazalarini bayon qildi. Ayniqsa, inson va uning qadr-qimmati, taqdiri haqida kup bosh qotirdi.

Franchesko Petrarkani zamondoshlari «birinchi gumanist» yoki «gumanizmning otasi», deb atashardi. Chunki, u inson haqida, uning tanasi bilan joni, joni bilan ruhi orasidagi o'zaro aloqadorlik haqida ko'p o'ylar edi. U Paduyadagi averroistlar makgabini qattiq tanqid qilardi. Chunki, averroizm tarafdorlari kishi jonining o'lmasligi, uning abadiy mavjudligi haqidagi antik zamon mutafakkirlari qarashlarini inkor etishardi. Petrarkash fikriga ko'ra,

individual jon ham abadiy hayotga munosibdir. Ayni paytda mutafakkir katolik xristianlarining inson va uning taqdiri to'g'risidagi aqidalariga ham qo'shilmas edi. Chunki, xristian katoliklari inson taqdirini, ayniqsa, baxt-iqbolini uning o'limdan keyingi hayoti bilan bog'lar edilar. Petrarka esa insonning o'limdan keyingi baxt-saodati haqida emas, uning yerdagi, «bu dunyodagi» hayotida baxtli bo'lishi haqida ko'proq uylash zarur ekanligini qayta-qayta takrorlar edi. Shuning uchun ham Petrarka insonning ruhiy kechinmalariga alohida e'tibor bilan qaraydi. Insonning ruhiy-ma'naviy olamini har tomonlama ulug'lovchi antik zamon faylasuflariga murojaat qiladi. Xuddi shuning uchun ham Petrarka O'zining insonparvarlik g'oyalarini shakllantirish-da antik madaniyat, xususan antik-falsafiy merosga tayandi. O'z ijodida antik madaniyatni targ'ibot-tashviqot qilishga ko'proq e'tiborni qaratdi. U tuplagan lotin tilida yozilgan qo'lyozmalar, klassik matnlar o'z zamonasining noyob kutubxonasini tashkil etdi.

Franchesko Petrarka antik zamon madaniyatini ulug'lar ekan, unga tarixiylik nuqqai nazaridan yondashdi. Mutafakkir uchun antik zamon ortda qolgan jannat yoxud oltin asr emas, balki muhim ahamiyatga ega bo'lgan madaniy merosdir. Ushbu merosning gumanistik mohiyatini zamondoshlariga tushuntirib berishni o'zining eng muhim vazifasi, deb bilgan. Petrarka nazarida jahon sivilizasiyasiga qo'shgan hissasiga ko'ra, Rim Yunonistondan ustunroq turadi. Chunki, Rim jahon sivilizasiyasining an'anaviy namunasi edi.

O'zining gumanistik qarashlarini bayon etishda Petrarka o'rta asr-lar madaniy merosiga, jumladan Avgustin ijodiga ham murojaat etdi. U shuningdek, «O'z bilimsizligim va o'zgalar bilimsizligi haqida» nomli traktatida Ibn Rushd tarafdorlariga qarshi chikdi. O'z navbatida, Petrarkaning fikr-mulohazalari Ibn Rushd tarafdorlarining boshqa bir tanqidchisi Foma qarashlaridan ham mutlaqo farq qilardi. Shuning uchun ham Petrarka o'zining ikki tomonlama haqiqat to'g'risidagi ta'limotini yaratish jarayenida, hatto, Fomaning nomini eslatib ham o'tmadi.

Petrarka har qanday obro-e'tiborga sajda qilishga qarshi chiq-di. U Aristotel qarashlarini emas, balki yolg'on obro'-e'tibor haqida fikr-mulohaza yuritgan «esi

past aristotelchilarning» qarashlarini tanqid qildi. Uning fikriga ko'ra, o'rta asrlar oxirida yuzaga kel-gan universitetlar inqirozga yuz tutmoqda edi. Chunki o'rta asrlar oxirida universitetlarning uqituvchilari «xudojuylikdan borgan sari yiroqlashib borayotgan, teologiyani obrusizlantirayotgan edilar». Petrarka o'zining bilimsizligini tan olish orqali o'z tafakkurining sxolastik universitet g'oyalaridan ozod bo'layotganini ifodalamoqchi bo'ldi.

Franchesko Petrarka o'z zamondoshlari kabi bag'oyat xudojuy odam edi. Lekin u o'rta asrlar sxolastikasining soxta, yasama bilimdonligini tan olmas edi. Inson o'zidagi iste'dodlarini erkin namoyon qilishi zarur, deb hisoblardi. Inson insondek rohatfarog'atda yashashga, ho'zur-halovat olishga haq-huquqi borligani isbotlashga urindi. Shuning uchun bo'lsa kerak, u O'zining falsafiy qarashlariga axloqiy sayqal berdi. Buning uchun esa qadimgi yunon faylasufi Suqrot falsafasiga qayta-qayta murojaat etdi. Petrarka axloqiy qarashlarida inson muhabbati muammolari birinchi urinda turadi. Muhabbat inson ma'naviy yetukligining eng oliy ifodasidir, deb. ta'riflaydi. U shuningdek, O'zining «Mening sirim» nomli falsafiy muloqotlarida insonning ruhiy kechinmalari xususida bosh qotiradi, insonning ruhiy ma'naviy kamolot tomon boshlash haqida ajoyib g'oyalarni kun tartibiga qo'yadi. Bu boradagi mutafakkirning fikr-mulohazalari usha zamon Yevropa adabiyoti uchun notanish – lirik janrda yozilgan edi. Xuddi shuning uchun ham Petrarka Yevropa adabiyotida lirika janrinkng asoschisi, degan nomga sazovor buldi.

Shuning uchun ham Franchesko Petrarka nomi yevropalik insonpar-var mutafakkirlar orasida munosib o'rin egallaydi. Uning nomi asrlar osha ajdodlardan avlodlarga utib kelmoqda.

Leonardo da Vinchi genial musavvir, taniqli faylasuf, tabiatshunos olim va muhandisdir. U Vinchi shahrqda notari-us oilasida tugilgan. Florensiyada taniqli haykaltarosh va rassom Verrokyu qo'lida ta'lim olgan. 1482 yildan boshlab Leonardo da Vinchi qator ajoyib tasviriy san'at asarlari yaratib, buyuk rassom sifatida tanilgan. Shu bilan bir qatorda universitet ma'lumotini olmagan bo'lsada,

tabiiy va ijtimoiy fanlar sohalarida samarali ilmiy fao-liyat bilan shugullanib, buyuk olim bo'lib ham tanildi.

Leonardo da Vinchi maxsus nazariy va buning ustiga falsafiy asar-lar yozmagan, lekin yon daftarchalarida juda kup fikr-mulohazalarini qayd qilib borgan. Ular chop qilishga mo'ljallanmagan. Uning adabiy merosidan bir qismigina «Rasm (jivopis) haqida kitob» nomi bilan XVI asrda ma'lum bo'lgan.

Leonardo da Vinchi yangi, o'z davri ehtiyojlariga mos g'oyalarni olg'a surdi. Uning dunyoqarashi aqidaparast cherkov va sxolastlarning, astro loglar va alximiklarning asossiz da'volariga qarshi kurashda shakllandi. Leonardo da Vinchi sxolastlarning mulohazalarini sofistika, deb atagan edi. «Olov yolg'onni, ya'ni sofistni yuq qiladi,— deb yozadi Leonardo,— va qorongulikni quvib, haqiqatni namoyon qiladi. Olov har qanday sofistni yo'q qilishga yunalgan va haqiqatni tushuntiruv-chi, ta'lim beruvchidir, chunki u narsalarning mohiyatini yashiruvchi qorong'ulikni tarqatib yuboradigan yerug'lik»¹.

Leonardo tabiatini ilmiy bilish tarafdori bo'lib, mo'jizaga asoslangan mulohazalarni inkor etardi. U tabiatning barcha hodisalari obyektiv qonuniyatga bo'ysunishini ta'kidlaydi; «Zaruriyat tabiatning murabbiysi, zaruriyat tabiatning mavzusi va ixtirochisi, ham jilovi, ham abadiy qonuni»¹.

Leonardo yerning dunyo markazi ekanligi haqidagi tasavvurlarni inkor qilib: «U quyosh doirasining markazi emas, dunyoning markazda ham emas, balki O'zining, o'ziga yaqin va birlashib ketgan narsalarning markazidir», – deb yozadi.

Yer, Leonardo fikricha, «Deyarli oyga o'xshagan yuldo'zdir». Mutafak-kirni bilish nazariyasi masalalari juda qiziqtirgan. Sezgi va tasav-vurlarning manbai tashqi dunyoning, tabiatning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasi, sezgi – bilishning boshlanishi, deb hisoblaydi: «Bizning barcha bilishimiz sezgilardan boshlanadi».

Leonardo fikricha, bilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, «his qilmaydigan» narsa sifatidagi oynadan farq qilib, sezgi organlari predmetlardan, tashqi dunyo hodisalaridan olgan taassurotlarini ma'lum vaqtgacha saqlaydi.

¹ Дж. Бруно. О героическом энтузиазме. М., 1953, стр. 54.

¹ Леонардо да Винчи. Избр. произв. Т. 1. М-Л-, 1975, стр. 54.

Ilmiy faoliyatning mazmunini buyuk olim asosan insoniyatga kel-tiradigan amaliy foydasiga qarab belgalaydi. Uning harbiy sohada (masalan, tank g'oyasi), tuqimachilik (ishlab chiqarish sohasida masalan, avtomatik tuquv stanogi loyihasi), havoda uchish (parashyut g'oyasi bilan) kup sohalardagi ixtiro va loyihalari o'z davrining texnikaviy imko-niyatlari va ehtiyojlaridan ancha oldinga ketgan edi. Tajribaning mu-him rolini ta'kidlar ekan, Leonardo hodisa va faktlarni oddiy ko'zatish va idrok qilish qancha ko'p bo'lsa ham haqiqatga erishishning mini-mal sharoiti, xolos, deydi. Hatto, tajriba ham buning yagona vositasi emas, deb biladi va bir yechimga ega haqiqatga erishish uchun nazariy taxlil zarurligini tushunadi. Amaliy tajriba va uning ilmiy angla-shini qushib olib borish zaruriyatini yangi haqiqatlarni kashf etish-ning bosh yo'li sifatida asoslab berdi: «Fansiz amaliyotga berilgan kishi, – deb yozadi Leonardo,– rulsiz yoki kompassiz kemani boshqarayotgan kapitan, u qayoqqa so'zayotgani haqida hech ishonchi yuq. Fan – sarkarda, amaliyot – soldatlardir. Tajribani anglash va umumlashti-rish uchun birinchi navbatda zarur bo'lgan eng ishonchli fanni matematika, deb hisoblagan. Leonardo fikricha, fanning asosi bo'lgan amaliyotga tayanmay turib haqiqatni bilib bo'lmaydi. «Men ular kabi, deydi u, mualliflarga tayanmasam ham, undan-da buyukroq narsa – murabbiylar-ning murabbiysiga – tajribaga asoslanaman». Leonardo amaliyot tushunchasini tor tushunsada, uning fan va amaliyot birligi haqidagi ajoyib mulohazalari hozirgi kungacha ham ahamiyatini yo'qotgan emas.

Leonardoning dunyoqarashi metafizik cheklanganlikning keyingi falsafiy tizimlarga xos bo'lgan xususiyatlarini hali kasb etgan bo'lmasada, uning asarlarida ajoyib dialektik taxminlar uchraydi. Masalan, u shunday deb yozadi: «Har qanday oziqlanadigan narsalarning tanasi tinimsiz ula boradi va yana tinimsiz tug'ila boradi... Bir kunda qancha parchalansa, shuncha uning urnini tuldiradi, u vaqtda qancha sarflansa, shuncha tiriklik tug'iladi...»

Leonardoning imkoniyat va voqelik haqidagi, materiyaning bir holat-dan boshqa holatga utishi haqidagi mulohazalari ham stixiyali dialektika bilan yutrilgan: «Masalan, mo'zni olamiz va uni cheksiz bo'lib boramiz: u suvga

aylandi, suvdan havoga va agar havo yana jipslashsa, yana suv to'ladi, suvdan dulga aylanadi va hokazo».

Leonardo insonparvarlik tamoyilidan kelib chiqib, insonning tabiatdan ustunligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Bir tomondan, inson tabiatsiz va undan tashqarida hech narsa qila olmaydi. Masalan, u alximiklar intilgani kabi oltin yarata olmaydi, chunki oltin faqat tabiat yaratishi mumkin bo'lgan oddiy narsalarning biridir. Lekin insonning kuch-qudrati keyin boshlanadi. U oddiy tabiiy modsalardan cheksiz turdagi murakkab narsalar, predmetlar yaratadiki, ular hech qachon tabiatda bo'lmagan va bo'lmaydi ham.

Uyg'onish davri badiiy-estetik tafakkurining rivojlanishida Leonardo xizmati beqiyosdir. Ma'lumki, bu davrda realistik san'at gullab-yashnagan edi. U musavvir sifatida qator asarlar yaratib, Italiya va undan tashqaridagi musavvirlarga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. U san'atning yirik nazariyotchisi sifatida maydonga chikdi. Uningcha, san'at ham fan kabi real dunyoni bilishga xizmat qiladi. Fanning asosiy vazifasi moddiy dunyoning miqdor tomondan ochishdir. Masalan, geometriya doirani kvadratga, tanani kubga qushishga harakat qiladi, arifmetika esa kvadrat va kub kupaytmalar bilan ish olib boradi. Oqibatda ikkala fan ham miqdorning o'zluqli va o'zluksizligini bilishga erishadi, lekin tabiatning haqiqiy go'zalligi ifodalangan sifat oldida ojizdir. Sifatlilikni bilishga asosan san'at orqali erishish mumkin. Sifatlilik shu bilan bir qatorda konkretlilikni, individuallikni, o'ziga xos, takrorlanmaslikni ham bildiradi. Bunda buyuk rassom tabiatda insonni estetik bahramand qiluvchi funksiyani ko'radi. U «shu darajada lazzatli va xilmaxilliqda shunchalik tuganmaski, bir turga tegishli daraxtlar orasida boshqasiga to'la uxshaydigan o'simlik topilmaydi. Usimliklar, shoxlar, barglar, urug'lar orasida ham boshqasiga aniq uxshaydiganini uchratib bo'lmaydi».

San'atning bilishdagi roli ijodkorning bu konkretlik va individuallikni maksimal darajada tiklash layoqatida aniqlanadi. San'atlar ichida birinchisi, Leonardo fikricha, tasviriy san'atdir. Chunki, «jonning tuynugi hisoblanmish ko'z

– tabiat cheksiz ijodining eng kup boyliklarini va buyukligini umumiy his qildiradigan bosh yo' dir»¹.

Tasviriy san'atni faqat savodlilar emas, savodsizlar ham unday yoki bunday tushunadilar. Tasviriy san'at – tovushsiz poeziya, poeziya esa – rangsiz tasviriy san'atdir². Mohiyatan, Leonardo fikricha, san'-at fandan yuksaقدir, chunki u tabiatning o'zini butunlay haqiqiy tasvirlay oladi, fan esa bunga layoqatli emas.

Hissiyotlarga asoslanish zaruriyati rassomga katta mas'uliyat yuklay-di, lekin haqiqiy rassom chuqur o'ylab ish qiladi. Oynaga o'xshab, ko'rga-nini o'ylamasdan tasvirlaydiganni rassom, deb bo'lmaydi. Rassomning ijodiy tabiati individuallikni va betakrorlikni tasvirlash uchun zarur layoqatga egaligida namoyon bo'ladi. Rassomning umumlashtiruvchi kuchi uning individuallashtirish layoqatiga mutanosibdir.

Leonardo fan kabi san'atning asosini ham tajriba, deb hisoblay-di. «...Yaxshi mulohaza yaxshi tushunishdan kelib chiqadi,— deb yozadi u,— yaxshi tushunish esa yaxshi qoidalardan olingan asosdan kelib chiqadi, yaxshi qoidalar esa barcha fan va san'atlarning umumiy otasi bo'lgan yaxshi tajribaning qizidir».

San'atda yuksak natijalarga erishish uchun, Leonardo fikricha, hayotni o'rganish lozim.

Leonardo fan va san'atdagi sxolastikaga qarshi kurashib, ularning rivojida tanqidning buyuk rolini falsafiy tafakkur tarixida birin-chi bo'lib ta'kiddlagan faylasuflardan. Hatto, musavvir bo'lmagan kishi-ning mulohazasini ham inkor qilish kerak emas. «Agar odamlar tabiat yaratgan narsalar haqida to'g'ri fikr qilishlarini bilsak,— deb yozadi Leonardo,— u vaqtda ular bizning xatolarimiz haqida xam mulohaza qila olishlarini yanada ko'proq tan olishga to'g'ri keladi»².

Shunday qilib, tabiatni bilishda tajribaning hal qiluvchi ahamiyatini ta'kidlash, mexanika va matematikani yuksak baholash, nazariy tadqiqotlarning hayot talablari bilan aloqasini urnatish, fanning rolini chuqur tushunish, sxolastikani

¹ Эстетика Ренессанса, М; 1981. Т 2, стр. 362.

² Леонардо да Винчи. Изб. Пр. Т., М., 1975, с.207

inkor qilish – Leonardo da Vinci falsafiy dunyoqarashining asosiy xususiyatlaridir.

Хулоса, Ғарб Уйғониш даври тасвирий санъати ўша давр адабиёти, фалсафаси билан ҳам боғлиқ бўлиб, ўзига хос хусусиятларга эгадир. Бу биринчи навбатда гуманистик ғоялар ҳисобланади.

II BOB. G'ARB UYG'ONISH DAVRIDA TASVIRIY SAN'AT

2.1. Italiya Uyg'onish davri tasviriy sant'atning badiiy jihatlar

Feodal jamiyati qo'ynida kapitalistik munosabatlarning tarkib topishi G'arbiy Yevropa hayotida muhim o'zgarishlarga olib keldi. Din o'z obro'sini yo'qota bordi, mayda hunarmandchilikdan manifakturaga o'tish, shaharlarning tezlik bilan kengayib, rivojlanib borishi, yangi qit'alarning ochilishi va savdo – sotiqning rivojlanishi ijtimoiy hayot qiyofasini ham, odamlarning hayotga, voqelikka bo'lgan munosabatini ham o'zgartira boshladi.

Bu davrga kelib, qirol hokimiyati shahar aholisiga suyanib, feodal dvoryanlarning qudratini sindirib, tashladi va yirik – yirik, aslida millatlarga asoslangan monarxiyalar tuzdi, bu monarxiyalarda hozirgi zamon Yevropa millatlari va hozirgi zamon burjua jamiyati taraqqiy eta boshladi». Ana shu taraqqiyot jarayonida yangi dunyoviy san'at va madaniyat kamol topdi. Kitob bosishning vujudga kelishi abadiy va ilmiy asarlarni keng tarqatish imkoniyatini yaratdi. Mamlakatlar orasidagi yaqin munosabatlar esa badiiy hayotdagi yangiliklarni tezda o'zlashtirish imkonini tug'dirdi.

O'z taraqqiyotini XV-XVI asrlarda boshidan kechirgan bu yangi madaniyat tarixda «uyg'onish» deb nom oldi. Bu iborani italiyalik rassom va san'atshunos Jorj Vazari Italiyada san'at uzoq o'rta asrdan so'ng yana qaytadan «o'yg'onganligi» sababli ishlatgan va asosan, Jotto ijodiga nisbatan qo'llangan edi. Keyinchalik esa, bu keng mazmun kasb etib, Italiyada, so'ngra Yevropaning boshqa mamlakatlarida vujudga kelgan, feodalizm asridan farq qiladigan san'atni ta'riflash uchun qo'llanila boshlandi.

Albatta, Uyg'onish davrida taraqqiyoti hamma mamlakatlarda bir xil bo'lmaydi. Masalan, Germaniya so'nggi Uyg'onish, Niderlandiya esa yuqori Uyg'onish davri taraqqiyotini boshidan kechirmagan. Uyg'onish ta'biri bilan aytganda: «Bu – insoniyat shu davrgacha o'z boshidan kechirgan hamma o'zgarishlar ichida eng buyuk progressiv o'zgarish edi, bu shunday davr ediki, bu davr ulug' siymolarga muhtoj edi va bu davr o'z tafakkur kuchi, ehtiros va karakteri jihatida, mukammallik va olimlik jihatidan juda ulug' siymolarni

yetishtirib berdi». Dunyoviy san'at va madaniyat misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Uyg'onish davrida kishilari insonning aql – idrokiga, imkoniyatining cheksizligiga, ma'rifatning kelajakdagi tantanasiga ishonidilar. O'z izlanishlarning markaziga esa shu insonni qo'yidilar. Natijada ular chin ma'noda xalqchil asarlar yarata oldilar, keng xalq ommasining orzu-istak, his-tuyg'ularini ifodalab, ilg'or gumanistik g'oyalarni ko'tarib chiqdilar. Shu boisdan ham bu davr «gumanizm asri» (gumanizm lotincha insoniy, insonparvar) deb ataldi.

Uyg'onish davri madaniyati antik dunyo madaniyatidan ta'sirlandi. Uning yodgorliklarini qunt bilan o'rgandi (antik dunyo yodgorliklarining Italiyada mo'lligi bunga qo'l keldi). Lekin bu davr ijodkorlari uning quliga aylanmadilar. Aksincha, undan o'z fikr, tuyg'u tushunchalarini ta'riflashda foydalandilar¹. Real voqelikka, go'zalikka qiziqish davr taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hayot real hodisa deb tan olindi. San'atkorlar voqelikni real tasvirlashda yangi qonun – qoidalarni izlay boshladilar. Perspektiva, rangshunoslik, yorug' – soya nazariyasi, anatomiya borasida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Me'morchilik va amaliy-dekorativ san'at yangi tendensiyalarning shakllanishiga xizmat qildi, jumladan, me'morlar qadimgi an'analarni o'zlashtirib, uni yangi mazmun bilan boyitdilar. Shu bilan birga, me'morchilikning yangi konsruksiyalarini vujudga keltirdilar, ko'p qavatli uylar, yangi qiyofadagi ijtimoiy binolar qad ko'tardi. Binoning tashqi va ichki tomonlarini bezash, kenglikni tashkil etish borasida ham qator yutuqlar qo'lga kiritildiki, ular keyingi Yevropa san'ati taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Italiyaning Sharq va G'arb orasidagi muhim savdo yo'lida joylashishi unda kapitalistik munosabatlarning juda erta shakllanishiga olib keldi. Savdo – sotiqning rivojlanishi, o'zga yurtlar bilan aloqasining intensivligi hunarmandchilikning rivojlanishiga zamin yaratdi. Feodal munosabatlarning zaifligi esa bu yerda yangi siyosiy tartibni – shahar – respublika tartibining paydo bo'lishiga va Italiyaning Yevropada birinchi bo'lib kapitalistik mamlakatga aylanishiga imkon berdi. Ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan bu xususiyat san'at va madaniyatda o'z ifodasini

¹ Абдуллаев Н. «Санъат тарихи». Тошкент. 1987 19 бет.

topdi. Bu o'zgarish savdo va ishlab chiqarish rivojlangan O'rta Italiyada joylashgan Florensiya, Piza, Senada hamda Shimoliy qismida Genuya, Milan, ayniqsa, savdolar va bankirlar respublikasi bo'lgan Venesiyada juda sezilarli bo'ldi.

Yangi davr san'atining harakterli belgilari dastlab adabiyotda ko'rina boshladi. Gumanist yozuvchi ijodi hali o'rta asr allegorizmidan xoli emas, simbolik tasvirlar mavjud bo'lsa ham, lekin shu shakllarda san'atkorning diniy syujetlarni real voqelik bilan bog'lashga intilishi seziladi. Albatta, bu hol asta – sekin kamayib, dastlabki gumanist yozuvchi va shoirlar Petrarka va Bokachcho asarlarida mavhum simbolik iboralar ikkinchi o'ringa qo'yilib, realizm esa birinchi o'ringa chiqarildi, voqelikni harakterli detallar bilan aks ettirishga kirishildi. Uyg'onish davri san'atkorlari uchun inson va uni o'rab olgan muhitning cheksiz imkoniyatlari va qizg'in ehtiroslarini atroflicha aks ettirish muhim o'rin tutadi. Inson his – tuyg'ulari yangi sharoitda o'rta asr zohidlik hayotiga qarshi kuchli isyon ko'taradi. Ularning turmush quvonchlari real talqin etiladi. Ijobiy qahramonlari harakterli beqiyos jasorat va mardlik mujassamlashadi. Shaxs erkini himoya qilgan, gumanistlar o'z kuch – qudratiga, haq ishning tantana qilishiga ishongan, adolat uchun kurashuvchi, qalbi pok, olijanob obrazlarni yaratish orqali Uyg'onish davrining hayotbaxsh ruhini aks ettiradilar. Tasviriy san'atda bu xususiyat dastlab haykaltaroshlikda Nikola Pizano (1225-1278), rassomlikda Chimabue, (1240-1302), Duchcho di Buoninsenya (1255-1319)lar ijodida ko'rina boshladi.

Haykaltarosh N.Pizanoning ilk asari Pizadagi bantisteriya minbari atrofiga ishlangan bo'rtma tasvirlar bo'lib, unda Iso hayotidan olingan voqealar aks ettirilgan. Bu tasvirlar o'zining dunyoviyligi, ko'rinishi jihatidan yerdagi oddiy hayotni eslatishi bilan harakterlanadi. U yerda tasvirlangan odamlar qiyofasi rimlik taqvodorlarga o'xshab ketadi. Ularning ko'rinishlari vazmin va ulug'vor, ishlangan buyumlarning materiali va hajmini ko'rsatishga e'tibor berilgan. Albatta, asar ramziy belgilardan, allegoriyalardan xoli emas, obrazlar nisbatan har xil, deformasiyaga yo'l qo'yilgan, fazoviy kenglik masalasi shartli olingan, hayotiy

detallar ozroq, lekin davr uchun shularning o'zi muhim edi. U keyingi realistik san'at taraqqiyotida alohida o'rinni egalladi. Nikola pizanoning ijodi Italiya haykaltaroshligining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, uning ta'sirida qator san'atkorlar kamol topdi. Shular orasida Arnolfo di Kambio (tax. 1240-1302), Jovanni Pizano (tax.1250-1317) mashhurdir.

Jovanni Pizano haykaltaroshlik sirlarini o'z otasi Nikola Pizanodan o'rgangani holda, protorennesans haykaltaroshligini Uyg'onish davri san'atiga yaqinlashtirdi. U o'z ijodida protennessans haykaltaroshligiga xos qotib qolgan sun'iylikdan qochib, unga zamon ruhini kiritdi, harakatni kuchaytirdi, ularning hayotiy tomonlarini oshirdi. Jovanni haykaltarosh va me'mor sifatida ijob qildi, sobor va cherkovlar qurish ishlarida qatnashdi. Minbarlar uchun relyef, ibodatxona tokchalariga qo'yish uchun haykallar ishladi. Bu relyef va haykallar harakatda, kuchli his – hayajon bilan ishlangan. Shu o'rinda uning «butga mixlangan», «Chaqaloqlarni chavoqlash» kompozisiyalari harakterli.

Jovanining go'dak ko'tarib turgan madonnalar obrazi ham jonli. Bu haykalda onalik mehri bilan to'lib toshgan Bibi Maryam va unga talpinayotgan go'dak obrazi hayotiy bo'lib, ularda diniy-mistik tushunchalar yo'q.

XII asrning oxirlarida Florensiya Italiyadagi yirik xunarmandchilik va savdo – sotiq markaziga aylandi. Siyosiy hokimiyat hunarmandlar va savdogarlar qo'liga o'tdi. Ishchilar bir korxonaga to'plandi. Mehnat taqsimotining o'ziga xos ko'rinishi – kapitalistik munosabatlar yuzaga keldi. Endilikda aql – farosatli, ijodkor inson imkoniyatlariga qiziqish kuchaydi. Dantening vatani bo'lgan Florensiyada tasviriy san'atdagi shu yangi xislatlar – realistik mazmunni ifodalashga intilish rivojlandi.

Yangi davr izlanishlari dastlabki Florensiyalik Chimabue nomi bilan mashhur bo'lgan Chenni di Peppo ijodida ko'rina boshladi. Vazari ta'biri bilan aytganda, u birinchi bo'lib rasm chizish va rangtasvirning yangi usullariga asossoldi. Chimabuening asarlari bizgacha kam yetib kelgan. Lekin ular rassom ijodidagi novartorlikni ko'ra olish imkoniyatini beradi. «butga mixlangan» (1280 yil), «Madonna chaqoloq va farishtalar bilan» (1280-1285 yillar) kabi

kompozitsiyalarida harakat, hayajonni tabiiy aks ettirishga, obrazlarni bir – biri bilan ruxiy bog'lashga harakat qilganligi sezilib turadi, kompozitsiyada fazoviylik elementlar ko'rinadi¹.

XV asr Italiya me'morligining yutuqlaridan yana biri palasso (shahar saroyi) qurilishi prinsiplarida namoyon bo'ladi. Bu qurilish keyinchalik shahardagi ijtimoiy-ma'muriy binolar qurilishiga ta'sir qildi, asos qilib olindi.

Ilk Uyg'onish davri me'morligining yana bir buyuk ijodkori Leon Batista Alberti (1404-1474)dir. U XV asr o'rtalaridagi yirik me'morgina emas, balki uning nazariyotchisi, ensiklopedik olim hamdir. Alberti «me'morlik to'g'risida o'n kitob» nomli asarida antik yodgorliklarni o'rganish asosida o'zi yaratgan yangi me'morlik kompozitsiyalarining ilmiy nazariyasini bayon qildi. Uning izlanishlari yuqori Uyg'onish davri me'morligi uslubiga asos yaratdi.

Florensiyadagi Ruchellai palassosi Albertning tugallangan yetuk asarlaridan hisoblanadi. Ochiq hovli atrofida qurilgan to'rtburchak shaklidagi yaxlit uch qavatli bu saroyda Alberti devorlarini qismlarga ajratadigan pilyastr, antibliment va tekis devor yuzasini yengil rusta bilan pardozlash hisobiga o'ziga xos go'zallik baxsh etadi. Bu binoda antik tradisiya (Rim me'morligi, birinchi galda, Kolizeyning order sistemasiga asoslanib) yangi badiiy mazmun va plastik ifodalilik bilan boyidi.

Ilk Uyg'onish davri tasviriy san'atida paydo bo'lgan yangi tendensiyalar dastlab haykaltaroshlikda ko'rina boshladi. Haykaltaroshlikda yangi davr san'ati tendensiyalari rangtasvirga nisbatan ilgariroq paydo bo'lishiga sabab, dastlab bu san'atning o'rta asr ibodatxonalar qurilishida keng o'rin olganligidir. Chunki ibodatxona Vadin bilan bog'liq bo'lgan katta binolar qurilishi qoshida haykaltaroshlik, dekoratorlik ustaxonalari ham mavjud bo'lib, bu ustaxonalarda bo'lajak san'atkorlar me'morlik, haykaltaroshlik hamda zargarlik sirlarini o'rganishar edi. Bu, albatta, yangi davr plastik san'ati ravnaqiga zamin yaratdi. Shunday ustaxonada ta'lim olgan haykaltaroshlardan biri Lorenzo Giberti (1378-

¹ Nurmatov M. San'atning milliy o'ziga xosligi to'g'risida. 1995. 34-bet.

1455)dir. Uning ijodida o'rta asr haykaltaroshligidan yangi davr realizmiga o'tish o'ziga xos yo'nalishda sodir bo'ldi. Zargarlik asoslarini egallagan bu san'atkor haykaltaroshlik asarlarida ham zargar singari har bir detal va obrazning tugal, aniq shaklga ega bo'lishiga harakat qildi.

Florensiyadagi baptisteriya uchun ishlangan bronza eshik yuzasiga ishlangan bo'rtma tasvir gibertining mashhur asarlaridan biri hisoblanadi. Bu tasvirda injildan olingan syujetlar bo'lib, haykaltarosh bunga real hayotiy voqyelar, shaharlar, me'morlik binolari, turli – tuman o'simliklar, tog'u toshlar ko'rinishini kiritadi. Relyeflar eshik yuzasida ajratilgan to'rtburchak tekisliklarga ishlangan. Tekisliklar orasiga esa girlyandlar, uzum boshlarining tasvirini tushiradi, o'zi va shogirdlarining portretlarini kiritadi. Bu eshikda ishlangan tasvirlarda hali gotika ta'siri birmuncha seziladi, (masalan, obrazlar cho'ziq, fazoviy kenglik kam ishlangan, odamlar xatti – harakatidagi sun'iylik va h.k), lekin haykaltarosh har bir obrazdagi psixologik holatning hayotiy va ishonarli bo'lishiga intiladi. Haykaltarosh ijodiga xos bo'lgan bu izlanishlar ayniqsa, uning 1425-1452 yillarda yaratgan, hisob jihatidan uchinchi bronza eshikda (birinchisi 1402-1408, ikkinchisi 1403-1424 yillarda ishlangan) yaqqol namoyon bo'ldi. Bu eshiklar haqida keyinroq Mikelanjelo: «Ular shunday ajoyibki, hatto jannat eshigi bo'lishga loyiqdir», -deb aytgan edi. Giberti ilk Uyg'onish davrining birinchi nazariyatchilaridan edi. U birinchi bo'lib, nazariy traktat (risola) yozadi va unga Italiya san'ati tarixiga oid birinchi qisqa ma'lumotni kiritadi.

Ilk Uyg'onish davrining yana bir haykaltarosh va me'mori Yakono dela vercha (1374-1438) bo'lib, dastlabki ijodida gotika ta'siri sezilarli bo'lsa ham, lekin ijodining gullagan davrida Uyg'onish davri san'atiga xos xususiyati kuchli bo'ldi. Zavq-shavqqa to'lgan, g'ayratli va jasur inson obrazini o'ziga xos dadil usullarda real talqin etib, yuqori gumanizm davri san'atkorlarining ijodiga xos yo'lni tuta oldi.

Ilk Uyg'onish davri haykaltaroshligining yulduzi florensiyalik haykaltarosh Donato di Nikola di Betti Bardi yoki qisqacha Donatello (1386-1466) edi. U Uyg'onish davri haykaltaroshligining haqiqiy islohotchisi, realistik san'atning

asoschisidir. Uning ijodi keyingi Yevropa haykaltaroshligi taraqqiyotida muhim o'rinni egalladi. Donatello haykaltaroshlik borasida erishilgan yutuqlar, sodir bo'layotgan yangi tendensiyalarni o'rganib, uni o'zlashtirgan holda, kvatrachento san'atiga xos bo'lgan yo'nalishni yaratdi. U haykaltaroshlikning ko'p turlarida ijod qildi, turli mavzuga murojaat qildi. Donatello badiiy ta'limni dastlab Giberti ustaxonasida egalladi, lekin san'atda o'z yo'lini topib, haykaltaroshlik san'atida davr harakterini to'laqonli ifodalashga erishdi. San'atkor ijodining ana shu o'ziga xos tomoni uning avliyolarga bag'ishlangan «Avliyo Mark» (1411-1412) va ayniqsa, «avliyo Georgiy» (1416) haykallarida namoyon bo'ldi. Bu asarlarda konkret real shaxsga fazilatlar real shakllarda tasvirlanib qolmay, balki shu davr kishilarining ideal inson to'g'risidagi tushunchalari o'zining badiiy ifodasini topdi. Avliyo Georgiy haykalida haqiqiy renessans davri kishisi – ziyrak, aktif, o'z uchun ham, boshqalar uchun ham kurasha oladigan, idayel qahramon shaxs qiyofasi namoyon bo'ladi. Georgiy o'z dubulg'asini ushlagancha, oyoqlarini yerga qattiq tirabi, o'z kuchiga ishongan holda har qanday dushmanga mardlarcha bardosh bera olishga va uni yengishga qodir ekanligini namoyon etib turibdi. Bu hol uning yon tomonga keskin burilgan boshida, ko'z qarashida, oyoqlarini yoyib, yerga qattiq o'rnatilib turishida ko'rinadi. Donatello o'z asarlarida real odamlarning xususiyatlarini berishga harakat qilar ekan, shu bilan birga, antik haykaltaroshlik san'ati namunalarini o'rgandi, uni tengi yo'q namuna, deb hisobladi. Uning «Dovud» deb nomlagan haykali Uyg'onish davrida birinchi marta kiyimsiz holda tasvirlangan odam haykali edi. «Odatdagi Gattamelatta» haykali esa o'z mehnati va aql – zakovati bilan jamoatchilikka manzur bo'lgan insonni ulug'lash uchun o'rnatilgan birinchi otliq haykali bo'ldi.

Donatello umrining so'nggida yaratgan «Yudif va Oloferi», «Mariya Magdalina» kabi asarlar yaratdi. Bulardan, ayniqsa, so'nggisida uning ijodiga xos gumanistik g'oyalar o'rnini pessimistik kayfiyatlar egallay boshlaganligi ko'rinadi.

Donatello relyef san'atida ham samarali ijod qildi. Uning paduyadagi Sant Antonio cherkovi syujetlar yuksak mahorat bilan ishlangan va shu sant'atning eng

yuksak namunasi hisoblangan. Juda murakkab, ko'p figurali bu kompozisiyada tasvirlanuvchilarning his-tuyg'u va kechinmalari ta'sirchan va jonli talqin etilgan.

Donatello Uyg'onish davri realistik haykaltaroshligining asoschisi bo'lib, u faqat shu san'at g'oyaviy mazmunini emas, balki badiiy vositalarini ham yangilashga bel bog'ladi. Uning ijodida gumanistik san'at ideali ilk bor o'z ifodasini topdi. U naturani chuqur kuzatish, antik dunyo san'ati yutuqlarini o'rganish asosida Uyg'onish davri san'atkorlari ichida birinchi bo'lib, yerda mustaqil turgan odam haykalini yaratish masalasini hal etdi, haykaltaroshlik portretini boshlab berdi, bronzadan birinchi otliq haykalini ishladi. Donatello ijodida boshlangan bu xususiyatlar kefingi Yevropa haykaltaroshligida uzoq vaqt maktab vazifasini o'tadi.

Rangtasvir. Florensiya rangtasviri XV asrda realizm yo'lga kirib kela boshladi. Rassomlar gotika ta'siridan qutilib, Jotto ijodining ilg'or tomonlarini rivojlantirdilar. Monumental rangtasvirdagi «al-fresko» ko'rinishi o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi.

Mazachcho. Florensiya rangtasvirida Mazachcho nomi bilan mashhur bo'lgan Tomazo di ser Jovanni di Simone Kassai muhim o'rinni egalladi va unda realistik yo'nalishni boshlab bergan yirik san'atkor sifatida tanildi. Mazachcho 1401 yili notarius oilasida dunyoga keldi va juda erta otasidan yetim qoldi. O'n olti yoshida Florensiyaga keldi va shu yerda rassomlik asoslarini egallaydi, rassomlarga shogird tushib, ularga devoriy suratlar ishlashda yordam beradi. Vazari ta'biricha, u o'z asarlarining tabiiy, jonli va real borliqqa o'xshab chiqishiga katta e'tibor beradi. Natijada u tezda Florensiya rangtasvirida ko'zga ko'ringan rassomlardan biriga aylanadi. Mazasso juda qisqa, 27 yil umr ko'rdi (1428 yili vafot etgan), lekin shu umri davomida yaratgan sanoqli asarlar Italiya san'atining keyingi taraqqiyotiga muhim rol o'ynadi. Rassom o'z ijodi davomida jasur insonning umumlashma, ideal obrazlarini yaratishga harakat qildi. Diniy mavzudagi kompozisiyalarda o'z zamondoshlari qiyofasini tasvirlashda cho'chimadi. Rassom yaratgan kompozisiyalar chiziq va rang perspektivasi qonunlari asosida ishlanganligi, har bir obrazning anatomik tuzilishi, odam

jussasidagi nur – soya o'zgarishlari, uni muhim bilan aks ettirishi, shu bilan birga, obrazlardagi yaxlitlik rassom zamondoshlari, ulardan keyingi avlod uchun ham haqiqiy o'rganish maktabi bo'ldi. Mazachcho ijodidagi ana shu xislatlar uning Florensiyadagi Sant Mariya del Karmine cherkovining Bronkachchi kapellasiga ishlagan devoriy suratlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Bu suratlar rassomning asosiy ishi, ijodining cho'qqisi hisoblanadi. Bu suratlarda rassomning novatorligi, sant'atga qo'shgan hissasi namoyon bo'ladi. Suratlarda apostol Petr tarixi va tavrotdan olingan voqyelar aks ettiriladi. Ular ichida «Jannatdan quvilganlar», «Statir mo'jizasi» kabi suratlar diqqatga sazovordir.

«Jannatdan quvilganlar» kompozitsiyasi so'zsiz, rassomning yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan asardir. Suratda jannat darvozasidan chiqib kelayotgan odam Ato va Momo Havo hamda ularning tepasida qo'lida qilich ushlagan farishta tasvirlangan¹. Asarda ortiqcha detal va obrazlar yo'q. Rassom diqqatini asosiy obrazlarga, syujetning dramatik mazmuniga qaratishga, ularning plastik yechimiga e'tibor beradi va kiyimsiz odamlar tasvirini nur – soya yordamida ishonarli holda hajmli talqin etadi. Bunda nur tasvir vositasi sifatida xizmat qilish bilan birga, uning ifodali va emosional tomonining oshishida ham muhim o'rinni egallagan. U kompozitsiyaga kenglik, fazoviylik kiritadi, obrazlarni havo bilan o'raydi. Ularning odimlab ketishayotgan paytini ishonarli chiqishiga erishadi.

Mazochchoning «Statir mo'jizasi» asari ko'p figurali kompozitsiya bo'lib, unda Iso va uning shogirdlaridan shaharga kirishlari uchun soqchilarning statir (tanga) talab qilganlari va Isoning buyrug'i bilan avliyo Petr ko'ldan baliq tutib, uning qornidan chiqqan tangani soqchiga berganligi tasvirlanadi. Afsonadagi ana shu voqealarning hammasi bir kompozitsiyada aks ettiriladi. Uning markaziy qismida joylashgan shahar darvozasi oldida apostollar ulug'vor, salobatli. Ularning xatti – harakati, o'zlarini tutishlari, qiyofalaridagi holat, tabiat ko'rinishi asardagi voqealarni oddiy hayotiy voqeaga yaqinlashtiradi va dunyoviy mazmun kashf etadi.

¹ Абдуллаев Н. Ўша асар, с.24

Mazzachchodan juda oz qolgan. Lekin Brankachchi kapellasiga ishlangan suratlarining o'ziyoq uni novator rassom sifatida namoyon etadi, san'atdagi yangi asr boshlanayotganligidan darak beradi. Bu kurtak ko'pgina Uyg'onish davri rassomlari uchun namuna maktabi bo'lib, keyinchalik Italiya san'ati rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Vazirning yozishicha, Mazzachchoning Brankachchi kapellasiga ishlangan suratlarini ko'rish uchun Italiyaning boshqa shaharlaridan ham rassom va san'at shinavandalari kelgan. Bular ichida Uyg'onish davrining buyuk rassomlari Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelolarni ham uchratamiz.

Ilk Uyg'onish davri realistik san'ati taraqqiyotida Paolo Uchchello (1379-1475) hamda Andrea del Kastano (1423 - 1457)lar ham muhim o'rin egalladilar.

Paolo Uchchello nomi bilan mashhur bo'lgan Paola di Doni to'g'risida ma'lumotlar kam saqlangan. Shunga qaramay, bizgacha saqlangan asarlari uni san'atning nazariy masalalari bilan shug'ullanib, amalda tatbiq etishga intilgan san'atkor sifatida namoyon qiladi. Uning o'z asarlarida, ayniqsa chiziqli perspektiva imkoniyatlaridan foydalanishga hamda obrazlarni murakkab rakurslarda tasvirlashga intilish seziladi. Uning ilk asarlaridan biri Florensiyadagi soborlardan biriga ishlangan devoriy surat bo'lib, unda kondotyer (yollangan otliq qo'mondon) tasviri tushirlgan kompozisiya rassom izlanishlarini namoyon qiladi. U chiziqli perspektiva imkoniyatidan foydalanib, bu kompozisiyani shunday quradiki, tomoshabin uni go'yo pastdan turib idrok etayotgandek his qiladi. Uchello jang voqealarining monumental tasvirini ishlashga intilgan G'arbiy Yevropadagi birinchi rassomlardan hisoblanadi. Bu kompozisiyalarda uning chiziqli perspektiva va murakkab rakurslardan foydalanishga intilishi, voqelikni chuqur kenglik ichida ko'rsatishga harakat qilganligi seziladi. Kastano ham Mazachcho boshlagan yo'lni davom ettirib, voqelikni hajmli va muhitda tasvirlashga intildi va shu bilan birga, kolorit masalalari bilan ham qiziqdi. Andrea del Kastanyu o'z ijodida Mazachcho va Donatello maktabi soboqlarini qo'llashga, qahramonlik pafosi bilan sug'orilgan, dramatik kompozisiyalarni monumental formalarda aks ettirishga intilgan san'atkorlardandir. Kastano asarlari ichida ayniqsa, Pandolfino villasi devoriy suratlari mashhur. Bu suratlarda qadimgi va o'z

zamonasining ilg'or kishilarini tasvirlaydi va shular orqali inson ruhi va zakovatini ulug'laydi. Kastano yaratgan «Cirli oqshom» devoriy surati, ayniqsa, mashhur. Diniy mavzuga bag'ishlangan bu kompozitsiyada ham rassom o'zini realist san'atkor sifatida namoyon etadi. Asarda tasvirlangan Iso va apostollar qiyofasida insonlarga xos fazilatlar – hayajonlanish, cho'chish, ikkilanish kabi xislatlarni ifodalab, har bir tasvirlanuvchining individual fazilatini yoritishga erishadi.

Italiya ilk Uyg'onish davrining mashhur koloristi Domeniko Venesiano (tax. 1410-1461 yillar) asli venesiyalik bo'lib, Florensiyaga yetuk ijodkor sifatida kirib kelgan (1438 y.) va shu yer san'ati ta'sirida ulug'vor, monumental asarlar yaratgan. Uning asarlari nurga boy. Nur rassom asarlarida fazoviy kenglik yaratishda, mavjud obraz va predmetlarni havo bilan o'rashda muhim rol o'ynaydi. Venesiano yaratgan «Munajjimlarning ta'zim qilishi» (tax. 1440-1445 y., Berlin-Dolem Davlat muzeyining surat galereyasi), «Madonna va avliyolar»¹ (tax. 1445 y., Florensiya, Uffisi galereyasi) shunday asarlardandir.

Fra Filippino Lippi (1406-1469) Florensiya rassomlik maktabining yirik vakillaridan bo'lib, o'z davrining shoir, rassomlaridan edi. U Mazzachchodan ta'lim olib, unga Brankachchi kapellasiga devoriy suratlar ishlanganida yordam bergan, degan taxminlar bor. Filippo Lippi ham o'ziga zamondosh san'atkorlar kabi diniy mavzuda rasmlar chizdi. Bibi Maryam, Iso va avliyolarga bag'ishlab asarlar yaratdi va kompozitsiyalarda o'z zamondoshlarini tasvirladi, ularning kiyinishi, soch tarashlarini aynan o'ziga o'xshatib ishlashga harakat qildi. «Go'dakka ta'zim qilish» (tax. 1458-1460 y., Berlin-Dolem, Davlat muzeyining surat galereyasi) asari Isoning tug'ilishiga bag'ishlangan asarlar ichida o'zining yangicha intim va liriyligini talqin etilishi bilan ajralib turadi. Rassomning eng poetik asarlaridan hisoblangan bu kompozitsiyada Bibi Maryam tiz cho'kkan holda yerda, maysalar ustida yotgan chaqaloqqa qarab turgani tasvirlangan. Quyuq o'rmonzor va maysazorlardagi gullar rassom tomonidan tabiatni chuqur his qilib chizilganligini ko'rsatadi. Atrofga yengil yorug'lik taratayotgan oltin nurlar Bibi

¹ Мастера искусств об искусстве, т. 1. М., 1964.

Maryam va chaqaloqni yoritgan holda, butun kompozitsiyaga sirli joziba kiritgan. Lippining «Madonna chaqaloq va farishtalar bilan» (1465 y., Florensiya, Uffisi galereyasi) asari ham mashhurdir. Agar asarda tasvirlangan obrazlardagi ayrim detallari, masalan, Madonna boshi atrofidagi oltin gardish hamda farishtalardan birining ortidan koʻrinib turgan qanot hisobga olinmasa, bu oddiy kresloda chaqaloq koʻtarib oʻtirgan ona va ikki bola portreti sifatida namoyon boʻladi.

XV asr oʻrtalaridan boshlab, kvatrocento sanʼati prinsiplari Italiyaning boshqa shaharlarida ham tarqala boshladi. Agar ilk Uygʻonish davrining dastlabki bosqichida Florensiya Italiya badiiy hayotida muhim markaz vazifasini oʻtagan boʻlsa, endilikda ahvol butunlay oʻzgara boshladi. Italiyaning oʻrta va shimoliy qismida oʻziga xos rassomlik maktab va yoʻnalishlari yuzaga kela boshladi. «Bular ichida Umbriya, Paduya, Venesiya sanʼati ajralib turadi. Turli badiiy maktablarning tashkil topganligi, eng avvalo, mamlakat ichkarisida yagona birlining yoʻqligi, Italiya rayon va shaharlarida turli siyosiy tuzumning mavjudligidan dalolat beradi¹.

Umbriya maktabi. Toskanoning shimoli – sharqiy tomonidan joylashgan Umbriya yerlari XV asr oʻrtalarida Italiya Uygʻonish davrining muhim badiiy markazlaridan biriga aylandi. Umbriya shaharlari shimoliy Yevropa va Vizantiya bilan aloqada boʻldi, sanʼatda sodir boʻlayotgan yangiliklarni ijodiy oʻzlashtirdi. Bu Umbriya maktabining oʻziga xos tomonlarini belgilashda muhim rol oʻynadi. Bu maktabga xos fazilat ishlangan asarning rangdorligi, lirik yechimi va serjiloligida seziladi. Bu xislatlar shu maktabning yetuk vakillari Perudjino, Penturikkono va ayniqsa, Pyetro dela Francheska ijodida yaqqol seziladi.

Pyetro dela Francheska (tax. 1420-1492). Umbriya maktabining yirik vakili, rassom va nazariyotchisi Francheska Domeniko Venesiono ustaxonasida oʻz malakasini oshirdi. Brunelleski, Giberti ijodi bilan yaqindan tanishdi, perspektiva masalalari bilan shugʻullandi, rang va nurni estetik eposional oʻrganib, uni oʻzining amaliy faoliyatida sinab koʻrdi.

¹ Sulaymonova F. Sharq va Gʻarb. T.: 1997.

Rassom asarlari o'zining rangdor va serjilvaligidan tashqari, nurga boyligi bilan ham farqlanadi. Nur kompozisiyadagi hamma ranglarni birlashtirgani holda asarlarga o'ziga xos qaytarilmas joziba baxsh etadi. Francheskaning muhim asarlari ichida muqaddas but haqidagi afsonaga bag'ishlangan suratlar turkumi, ayniqsa, «Imperator Konstantining tushi» kompozisiyasi diqqatiga sazovordir. Aressodagi San Franchesko cherkovi uchun ishlangan bu suratda sirli, hatto bir oz qo'rqinchli sukunat rassom tomonidan kotib turgan qorovul, tinch uyquda yotgan imperator tasviri hamda muqaddas butdan tarqalayotgan yorug'lik hisobiga kuchaygan ranglar kontrasti orqali ochib berilgan.

«Solomonning ayol podsho Savskaya bilan uchrashuvi» kompozisiyasi ham hayotiy. Ayniqsa, tiz cho'kkan Savkach tasviri ta'sirli ishlangan. Francheska portret san'atida ham ijod qilib, o'z portretlarida tasvirlanuvchining individual xislatlari va harakterini ko'rsatishga harakat qiladi. U ko'pincha odamlar portretini yon tomondan ishlaydi. Lekin bu tasvirlanuvchining o'ziga xos harakterini yoritishga xalaqit bermaydi. Yon tomondan ishlangan portretlarni hajmga va tabiat bilan uzviy birlikda ko'rsatishga harakat qiladi. Shu xususiyat uning «Federigo da Motefeltro portreti» (1465)da ko'rinadi. Francheska san'atining nazariy masalalari bilan shug'ullanmadi va shu izlanishlar umrining oxirgi yillarida yozgan risolalarida o'z ifodasini topdi. Rassomning ulug'vor va hayotbaxsh jasorat bilan sug'orilgan asarlari o'rta va Shimoliy Italiya rassomlarining Uyg'onish davri san'atiga o'tishida muhim rol o'ynadi. Francheska ijodi o'ziga xos ko'rinishda uning shogirdlari ijodida davom etdi. Ular san'atining yangi qirralarini ochib, realistik san'at arsenalining rang – barang bo'lishiga hissa qo'shdilar.

Luka Sinorelli (1441-1523). Francheskaning shogirdi bo'lgan bu rassom ishlash uslubi, asarlarining drammatizm bilan o'z ustoziga qarama – qarshidir. Francheska asarlaridagi epik vazminlik, obrazlardagi salobat va ulug'vorlik uning ishlarida keskin harakat, odamlar xatti – harakatidagi bevositalik bilan almashadi. Lekin u har bir obrazning ruhiy holatini tasvirlashni ham unutmaydi, shu maqsadda gavda, qo'l, oyoq harakati, yuzidagi mimik harakatlardan unumli foydalanadi.

Pyetro Perudjino (1450-1523) asl ismi Pyetro Vanuchchi ham Franseska shogirdlaridan, degan ehtimol bor. Uning obrazlari birmuncha parishon va xayolga choʻmgan holatda tasvirlanadi. Uning asarlari kompozision jihatdan sodda, rang jihatidan boy. Shimoliy Italiya sanʼatida XV asr oʻrtalariga qadar gotika sanʼatining taʼsiri sezilarli boʻldi. Ana shu oʻrta asrchilik va yangi davr sanʼati oʻrtasidagi munosayuat va oʻtish jarayoni shu davrning yirik rassomi Andrea Mantenya (1431-1506) ijodida boshlandi. Uning ilk ijodida gotika sanʼati anʼanalari mavjudligi sezilsa, ikkinchi tomondan, Florensiya maktabi taʼsiri borligi koʻrinadi. Rassom Florensiya rassomlari singari antik dunyo bilan qiziqdi, perspektiva imkoniyatlaridan foydalanib, asar yaratishga, tasvirining xayoliy koʻrinishini aks ettirishga intiladi. Rassom ijodida bu qarama – qarshiliklar uning ilk asarlarida, masalan, Paduyadagi Eremitani cherkovi uchun ishlangan suratlarda namoyon boʻladi. Avliyo Iakov tarixi toʻgʻrisidagi epizodlarni rassom chuqur drammatizm bilan tasvirlaydi.

1458 yili rassom Mantuyega taklif qilindi. Uning keyingi ijodi toʻliq shu yerda oʻtdi. Mantenyaning gersog saroyi uchun gersog va uning oilasi hayotiga bagʻishlangan voqealar aks ettirilgan devoriy suratlari diqqatga sazovor. Bu devoriy suratda rassomning izlanishlari va ijodining oʻziga xos tomonlari toʻliq namoyon boʻldi.

Mantenya gravyura boʻyicha shugʻullangan birinchi rassomlardandir. Italiya gravyurani haqiqiy sanʼat darajasiga koʻtarib Yevropa grafikasi taraqqiyotida muhim rol oʻynadi.

2.2. Rafael va Leonardo da Vinchi ijodiyotining asosiy xususiyatlari

Italiya san'atining dastlabki namunalari Florensiyada paydo bo'lgan. Florensiyada Uyg'onish davri san'atkorlaridan Djotto di Bondoj (1266-1337) asarlari diqqatga sazovor.

U ham me'mor, ham haykaltarosh ham shoir edi. G'arb Uyg'onish Davrining o'ziga xos badiiy va estetik jihatlari Italiya yetuk san'atkori S. Rafael Santi (1483-1520) ijodida yaqqol nazarga tashlanadi.

Rafael o'z asarlarida Leonardo da Vinchi uslublarini davom ettirib san'atga xos bo'lgan mutanosiblik (garmoniya) go'zallik to'g'risidagi ideallarni mujammas etadi. Rafael Urbino shahrida oddiy rang-tasvirchi rassom oilasida tug'ildi. U Timoteo dela Viti va Perudjino nomli rassomlardan ta'lim oladi.

Perudjino uslubi Rafael uchun keyingi davrdagi kompozisiya jihatidan olijanob asarlarni yaratishda xizmat qiladi.

Masalan, «Madonna Konestabile» asarida (1502) (hozir ushbu asar Ermitaj muzeyida Sankt Peterburgda saqlanadi) san'atkor buyoqlarni mujassamligini mukammal tarzda ishlanishi bilan shuhrat qozondi.

«Ushbu asar mazmundoligi, kompozisiya jihatidan mukammalligi bilan diqqatga sazovordir. San'atkorning hayotiy, his-tuyg'usi va aqliy tajribasi qanchalik, boy va xilma – xil bo'lsa, uning faqm-farosati shunchalik samarali bo'ladi»¹.

San'atkor voqea – hodisalarni yaxshi bilishi, boy taassurotlarga ega bo'lishi tafakkuriga yo'l ochadi. Ana shu badiiy xususiyatlar Rafaelning «Mariyaning nikohi»¹ (1504, Milan, Brerer gansreyasi) asarida namoyon bo'lgan.

San'atkorning «Mariyaning nikoxi» asari diniy harakterga ega bo'lsa ham aniq kompozisiya shartlilik, uslubida inson obrazi yaratib, san'at an'analari davom ettiradi. Shu xususiyat bu asarni jahonga mashhur bo'lishiga sabab bo'ladi.

¹ История зарубежного искусства. С.84.

² Абдуллаев Н. Санъат тарихи. Т.: 1987. 130- бет.

1508 yilda Rafael Rimga nana Yuliy II tomonidan taklif qilinadi. Yuliy II o'z atrofida butun iste'dodli san'atkorlarni yig'ib, o'z shahrining go'zallik jihatlarini yuksak darajada ko'taradi.

Ushbu davrda Rafael ijodida antik san'atkorning ta'siri, san'atning estetik jihatlarining yorqinligi ko'zga tashlanadi.

Shu jihatlari uchun Rafael Vatikan qasrini asosiy bezak rassomi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bu fa'oliyat 1809 yildan 1517 yilgacha davom etib, Rafaelning Uyg'onish davrining yetuk san'atkori, me'morchilik va tasviriy san'atning sintez darajasiga ko'targan rassom sifatida butun jahonga mashhur bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ushbu asarda «Afina maktabi», «Bahs», «Oqillik, me'yor, g'ayrat» singari kompozitsiyalar poetik va falsafiy ohang kasb etgan. «Bahs» kompozitsiyasida Italiyaning mashhur shoirlaridan Dante obrazi mavjud.

Uyg'onish Davrida gumanizm g'oyalarining namoyon bo'lishi va ushbu jihatlariga antik san'atning ta'siri Rafaelning «Afina maktabi» asarida o'z aksini topgan. Ushbu kompozitsiyada Aflotun, Arastu, Pifagor, Evklid obrazlari, Rafaelning o'zining obrazi mavjud.

San'atkor qahramon hayoti bilan bog'liq muhim bir jihatni qayta yaratish uchun ham hayotining barcha mayda-chuyda tafsilotlarini to'la tasavvur qilishi darkor. Masalan, yozuvchi o'z qahramonini mehnat jarayonida ifodalash uchun uning kundalik turmushdagi, oilaviy va shaxsiy hayotdagi xulq-atvorini barcha ikir-chikirlari bilan tasavvur qila olishi yoki aksincha, qahramonning shaxsiy hayotini ishonarli tasvirlash uchun san'atkor uning mehnat jarayonidagi xulq-atvorini to'la tasavvur etishi lozim bo'ladi.

San'atkor tasavvuri ishonchli bo'lishi uchun uning tajribasi, hayotni yaxshi bilishi lozim bo'ladi. Yozuvchi kundalik hayot muammolarini o'rganishdan chekinsa, hohlamasa, tasavvuri so'nib boraveradi yoki bema'ni, quruq xomxayolga aylanib qoladi.

Ijodkor ruhiy hayotining muhim bo'lagi bo'lgan tasavvur va fahm farosat o'zaro bog'langan bo'lib, ular ishtirokisiz ijodiy faoliyatning biror sohasida

samaraga erishish qiyin. Keng ma'nodagi fahm-farosat hayot haqiqatini bevosita idrok etish qobiliyatidir. Odatda fahm-farosatni his-tuyg'u va aqliy bo'laklarga bo'lib mushohada qiladilar. his-tuyg'uli fahm-farosat haqiqatni tashqi, masalan, ko'rish yordamida anglashni, aqliy fahm-farosat esa haqiqatni aql yordamida anglashni bildiradi.

San'atkorning o'tkir fahm-farosati uning badiiy iste'dodliligi belgisidir. San'atkor o'tkir fahm-farosat va quvvat-hofizasi yordamida badiiy qiyofa, ba'zan butun bir tarixiy davrni qayta yaratadi, ba'zan esa o'z tajribasida ko'rilmagan, ammo hayotda mavjud bo'lgan narsalarni topishga muvaffaq bo'ladi.

San'atkorning hayotiy, his-tuyg'uli va aqliy tajribasi qanchalik boy va xilma-xil bo'lsa, uning fahm-farosati ham shunchalik samarali va mazmundor bo'ladi. San'atkor voqea-hodisalarni yaxshi bilishi boy taassurotlarga ega bo'lishi fahm-farosat amaliyotiga katta yo'l ochadi. hayotdagi «to'satdan», «kutilmagan» haqiqatni fahm-farosat bilan ochish aslida san'atkor ruhiy qatlamlarida yashirinib yotgan axborot va ma'lumotlarini birlashtirib, shu zahotiy oqishga solish qobiliyatining mahsuli tarzida namoyon bo'ladi¹.

San'atkor o'zining fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, kechinmalari boshqalarning ham fikri, tuyg'usi, kechinmasiga aylanib ketishiga, o'zi ko'rganini boshqalar ham ko'rishiga, o'z ma'naviy mulki boshqalarning ham ma'naviy mulki bo'lib qolishiga intiladi. Piravord natijasida san'atkor o'zining badiiy rejasini asar badiiy to'qimasiga ko'chirilishiga erishadi. Badiiy asarning vujudga kelishi bilan badiiy ijod jarayoni tugallanadi va badiiy qiyofa hayotining yangi bosqichi-badiiy idrok jarayoni boshlanadi. Shundan e'tiboran badiiy qiyofaga «jon» kiradi va u harakatga keladi. Agar u idrok etilmasa, u moddiy narsa holatida qolib ketaveradi.

Rafalening freskadagi qahramonlari obrazlarida ijod ruhi, tafakkur tarzi, aniqlik, fazoviy, uyg'unlik mujassamlangan.

¹ Umarov E. Estetika T., 1995, 44-bet.

Musavvirning vazifasi o'zi in'ikos etayotgan olamni rasmga tushirishdir. Rang orqali o'z fikr va to'yg'ularini barcha qirralarini ifodalash uchun buyoqlar mutanosibligi va hamohangligini ifoda ettirishga intiladi.

Buyoqlar yorqinligi bilan badiiy ifodasining nur-soya vositasi juda yaqin turadi. Nur – soya yordamida voqealik hodisalarining xossalari ifodalangan. Nur – soya musavvirlikda keng qo'llanilib u rasm buyoqli yechimning ajralmas qismidir.

Italiya tasiriy san'atida Rafael nur – soya vositasining tengi yo'q ustasi hisoblanadi. Uning rasmlari yoqimli yorug'lik porlashida hamohanglik bilan uyg'unlashtirilgan. Yorug'lik Rafael asarlarida haqqoniy tasvirni to'lqinlantiruvchi go'zallik oqimiga cho'lg'anib yo'naltirilgan yuksak orzu – g'oya rolini bajaradi.

Ana shu jihatlar Rafaelning «Sikstin Madonnasi» (1515-1519) Drezden galereyasi asarida o'z aksini topadi. Oldingi asarlaridagi Madonnalardan ko'ra bu obrazga lirik jihatlar bilan birga fojaviy jihatlar xosdir. Go'yo bu Madonna farzandini taqdirini fojaviy tomonlarini oldindan bashorat qiladi. Kompozisiya dinamik harakterga ega, ushbu obrazga mukammallikka xosdir.

San'at inson faoliyatining estetik bo'lmagan sohalari bilan chambarchas bog'liqligi qadimgi dunyo, o'rta asrlar, Uyg'onish davri davomida sezilib turadi. Tasviriy san'at o'zining nafosatli xislatlariga va estetik nafosatli maqomiga ega bo'lib borgan sari uning ayrim turlari va janrlari ajralib chiqa boshladi. Uning musavvirlik, haykaltaroshlik, chiziqli rasm kabi turlari va janrlari sekin-asta mustaqil tasvir ko'lamiga va tasviriy-ifodaviy vositalariga ega bo'la boshladi. Tasviriy san'atning musavvirlik, haykaltaroshlik, chiziqli rasm turlari bir-biri bilan bog'liq bo'lib, bu bog'liqlik ba'zan oshkora, ochiq tarzda amal qiladi. Tasviriy san'at turlarining bir-biridan farq qilishi-ularning har biri voqelik manzarasini aks ettirishi bilan belgilanadi, lekin pirovardida ular bir tizimga birlashadilar. Musavvirlik, haykaltaroshlik, chiziqli rasmning ifoda vositalari xilma-xil bo'lib tasvirlanayotgan va ifodalanayotgan narsalar o'rtasidagi chegaralar shartlilik hamda nisbiylikka egadir. har bir san'at turida tasvir bilan ifoda chirmashib ketgan bo'ladi. Ifodalilik, ya'ni san'atkorning voqelikka munosabati tasviriy san'atning

ham muhim xususiyatidir. Musavvirlik, haykaltaroshlik, chiziqli rasmning umumiy xususiyati ular barchasining tasvir orqali ifoda etishidadir. Musavvirlik, haykaltaroshlik, chiziqli rasm san'atning fazoli xillari bo'lib, ular voqelikni fazoli in'ikos ettiradi. Ularda tasvirlanayotgan hodisalar mo'tadillik xususiyatiga ega bo'lib, bitta voqea yoki uning bir lahzasini tanlab tasvirlash orqali harakatdagi va rivojlanishdagi hayotning butun murakkabligi va boyligini ko'rsatish qudratiga ega. Ular fazoviy hodisalarni bevosita, vaqt o'lchovidagilarni esa bilvosita tomoshabinda o'y-xayollar va tasavvurlar hosil qilish orqali namoyon qiladi. Tasviriy san'at turlari hayotda bevosita jismiy ifodasi bo'lmagan tuyg'uli va aqliy jarayonlarni aks ettirishda adabiyot va musiqa turlariga yon bergan holda, hayot muqimligi va mo'tadilligini, undagi o'lmas va barqaror qadriyatlarni ochib berishda boshqa san'at turlaridan ustunlik qiladi. Musavvir ko'z ko'rib turgan moddiy ijodiy tasavvurida qayta ishlab, tekislikda tasvirlaydi. Bo'yoqlar, chiziqlar va ular aralashmasidan foydalanib, dunyoning barcha manzaralarini aks ettiradi, uning markazida esa inson turadi. Musavvirlikda inson qiyofasi to'g'ridan-to'g'ri hamda uning atrofidagi moddiy dunyoga munosabati ifodalanadi.

Musavvirlikda dunyoning ko'rinib turgan rango-rang boyligini alohida sezgirlik va erkinlik bilan aks ettiriladi. Agar haykaltaroshlikda hodisalarning nisbiy mo'tadilligi va muayyanligi aks etsa, musavvirlik olamning o'zgarishlarini, hayot oqimini tasvirlaydi. Musavvirlikda ko'z ilg'aydigan qiyofalar o'ziga xos san'at «tili»rang yordamida yaratiladi. Musavvir rang orqali bo'yoqlari mutanosibligini, uning moddiy mohiyatini, odamlar his-tuyg'usini, iroda kuchini, hatti-harakatlarini xilma-xil ko'rinishlarda ifodalaydi. Tasviriy san'atda nur-soya vositasini voqelikdagi nur va soya uyg'unligi vujudga keltiradi. Tus, rang voqelikdagi barcha narsalar va hodisalarga xos. Musavvir dunyoning nursoya boyligini aynan ko'chirmaydi, balki uni sinchkovlik bilan tanlab ajratadi, nursoya vositasida odamlar va narsalar hajmligini, tabiat go'zalligini, havo tiniqligini tasvirlab, voqelikda nur va soya tovlanishining eng nozik qirralarini namoyish qiladi. Nursoya dunyoning ko'z ilg'ayotgan narsalar ranglarini badiiy yaratibgina qolmay, u musavvir badiiy rejasi mazmunini, uning voqelikka bo'lgan munosabatini ham ifodalaydi. Musavvirlikning

ilk asosi-rasmdir. Rasm suratning o'ziga xos umurtqasini, sinch-ustunini anglatib, jism shaklini, atrof chiziqlarini, badiiy tizimini belgilaydi, jihozlar va odamlar har birining o'z o'rinlarini, asosiy belgilarini ko'rsatib beradi. Bir qator buyuk musavvirlar o'z asarlarini dastlabki ko'mir va qalam bilan tushirilgan rasmlarsiz yaratganliklari rasmning musavvirlik san'atidagi ahamiyatini kamsitmaydi. Ular mazkur asarlarni yaratish jarayonida mo'yqalamlarini shu qadar yuksak mahorat bilan ishga solganlarki, bir vaqtning o'zida ham rasm solganlar, ham surat yaratganlar.

Musavvirlik vositalari tizimida badiiy tuzilma (kompozisiya) katta ahamiyat kasb etadi, musavvir yozuvchiga o'xshab voqealarni ketma-ket aks ettirmaydi, balki tasvirlanayotgan voqeaning muayyan bir lahzasini ajratib olib, har birining o'z o'rnini, asosiy belgilarini ko'rsatib beradi. Musavvirlikda badiiy tuzilma (kompozisiya) fazoli tabiatga molik bo'lsa ham, tomoshabin hissini uyg'otadi. Musavvir badiiy tuzilma va vazn orqali o'z asarining vaqtli doirasini kengaytiradi. Musavvirlikning naqqoshlik, yodgorlik va dastgohlik ko'rinishlari mavjud. Naqqoshlik aslida me'morchilik bilan bog'langan bo'lib, devoriy suratlarda, birinchi navbatda, suvoq ustiga tushirilgan rasmda ifoda topadi. Bu dastgohlik ko'rinishidan avval vujudga kelgan bo'lib, rassomchilikda uzoq vaqt yetakchilik qilgan. Umumlashtirish darajasi o'ta lo'ndalik, shakliylik uslubi naqqoshlik san'ati ramziy «tili»ning belgilaridir.

Dastgohlik musavvirlik asoslari muzeylarda, ko'rgazmalarda namoyish etiladi. U o'zining ko'p qirrali ko'rinishlari (mavzuli surat, rasm, manzara, natyurmort) orqali voqelik tomonlarini yoritib beradi. Chiziqli rasmni tadqiqotchilar musavvirlikning bir ko'rinishi sifatida tahlil qiladilar. Uzoq yillar davomida chiziqli rasm rassomchilik va haykaltaroshlik bilan tarkibiy birlikda rivojlanib keldi. Chiziqli rasm o'zining tejamli va lo'nda vositalari orqali voqelik haqida ko'p narsa bildirayotgandek bo'ladi. Chiziqli rasm umumiy mavzu atrofida birlashgan bir qator rasmlar yaratish imkoniyatlari hamda veqyelik hodisalarini keng qamrab olish jihatidan badiiy adabiyotga yaqin turadi.

Musavvirlikda dunyoning ko'rinib turgan rangorang tasviri alohida erkinlik bilan aks ettirishi asosiydir. Agar haykaltaroshlikda hodisalarning nisbiy mo'tadilligi va muayyanligi aks etsa, musavvirlik oqimini tavsirlaydi¹.

Italiyalik mashhur san'atkor Rafael asarlarida shu xususiyatlar mavjud.

Rafael 37 yoshida vafot etgan, Vatikan haqidagi kompozisiyalarini shogirdlari oxiriga yetkazganlar. Mikelandjelo ijodiyotida Rafael uslubi ko'zga tashlanadi. (1475-1564).

«Go'zal bog'bonchi qiz», «Bog'dagi Madonna» (1507) asarlari hozirgi vaqtda Parijning Luvr muzeyida saqlanmoqda.

San'at turlari san'atga xos bo'lgan umumiy belgilarga ega bo'lib, ularning har biri: adabiyot, me'morchilik, musiqa, tasviriy san'at va shu singari muhim ko'rinishda namoyon bo'ladi. San'at turlarida xususiylarning umumiyga nisbatini ko'ramiz. Nafosatli tafakkurning tur hosil qilish manbalari ikki yo'nalishida vujudga kelgan. Manbaning birinchi yo'nalishi-voqelikning murakkabligi, ko'p qiyofaligi, har tomonlamaligidir. Masalan, san'at u yoki bu turining vujudga kelishi uning voqelikni qaysi tomonini aks ettirishga qaratilganligidir. Nazm va tasviriy san'at turlari bir-biriga qiyoslanganda, ularning mavzulari boshqa-boshqa bo'lib, mavzu xususiyatlari esa tasvir vositalaridan kelib chiqqanligini ko'ramiz. Ikkinchi yo'nalish-inson his-tuyg'usi boyligi, idrok etish xususiyatlari, inson ma'naviy qobiliyati bilan bog'liq.

San'at turlari vujudga kelish manbaiga ega bo'lgan bu ikki nuqtai nazarda o'zaro ziddiyat yo'q, lekin ma'lum farqlar mavjud. San'at turlarining hosil bo'lishida voqelikning hal qiluvchi ahamiyatini tan olgan holda, avvalo, inson idroki xususiyatlarini e'tiborga olib, san'atkor foydalanadigan moddiy ashyo xususiyatlarini ham nazardan qochirmaslik kerak. Moddiy ashyo ko'p jihatlardan u yoki bu san'at turiga xos bo'lgan tasvirli-ifodali vositalar xususiyatlarini yuzaga keltiradi.

¹ Qo'ziyev T., Behzod va tamaddun. T., 2000, 12 bet.

San'at turlari bir-birining o'rnini bosolmaydi: ularning har biri mustaqil, o'zicha nodir va betakror bo'lib, voqelikning bir tomonini bevosita aks ettiradi. Hsha tur u yoki bu insoniy his-tuyg'ularni ifodalashda boshqa turlarga nisbatan ustivor o'rin egallaydi va muayyan cheklanganlik xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, badiiy adabiyot hayotni keng va teran aks ettirishda, inson ruhiy-aqliy tomonlarini ochib berishda tengi yo'q san'at turi bo'lsada, u ma'lum cheklanganlik xossasiga ega. Badiiy adabiyot inson histuyg'ulari, sezgilari qirralrini ifodalashda musiqaga, tasviriy san'atga teng kelmaydi. hatto adabiyot, musiqa, tasviriy san'at «qorishmasi»dan vujudga keladigan kino san'ati ba'zi jihatlari bilan adabiyot, musiqaning o'rnini bosolmaydi. Shu bois san'atning bir turini boshqasiga qarshi qo'yish yoki ular o'rtasiga baland-past zinapoyalar tashlash maqbul emas: san'at turlari teng asosda harakat qilib, voqelikni aks ettirishda bir tur boshqa turlarga nisbatan ustivor darajada namoyon bo'ladi. Masalan, san'atning bilish vazifasi badiiy adabiyotda va u bilan bog'liq boshqa turlarda alohida bo'rtib ko'rinadi: musiqa inson his-tuyg'u madaniyati, tasviriy san'at sinchkov kuzatish madaniyati: ochiq sahna (estrada) va sirk san'ati esa ko'ngil ochish, tamosha madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. San'at amaliyoti davomida uning ikki xususiyati-ajralish va jamlanishga moyillik yaqqol ko'zga tashlanadi. Ajralish san'ati yangi turlarining vujudga kelishi, ularning mustaqillikka intilishi bilan bog'liq bo'lsa, jamlanish san'at turlarining biror qorishmaga (sintezga) intilishida ko'rinadi. Bu ikki moyillik insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotining barcha davrlariga xosdir.

Rafael ijodiyoti umuminsoniy jihatlari bilan yuksak badiiy estetik axloqiy tomonlari bilan asl san'atga xos bo'lgan xususiyatlarini o'ziga mujassamlashtiradi. Ushbu jihatlardan Rafael va Behzod ijodiyotida rang, kompozisiya va fazo birligi, uyg'unligi mukammal kasb etadi.

Rafaelning «Sikstin Madonnasi» asari va Behzodning «Layli va Majnun» asari ushbu jihatlardan bir-biriga o'xshaydi va ajoyib san'at namunalaridan hisoblanadi.

Leonardo da Vinchi genial musavvir, taniqli faylasuf, tabiatshunos olim va muhandisdir. U Vinchi shahrqda notari-us oilasida tugilgan. Florensiyada taniqli

haykaltarosh va rassom Verrokyu qo'lida ta'lim olgan. 1482 yildan boshlab Leonardo da Vinchi qator ajoyib tasviriy san'at asarlari yaratib, buyuk rassom sifatida tanilgan. Shu bilan bir qatorda universitet ma'lumotini olmagan bo'lsada, tabiiy va ijtimoiy fanlar sohalarida samarali ilmiy fao-liyat bilan shugullanib, buyuk olim bo'lib ham tanildi.

Leonardo da Vinchi maxsus nazariy va buning ustiga falsafiy asar-lar yozmagan, lekin yon daftarchalarida juda kup fikr-mulohazalarini qayd qilib borgan. Ular chop qilishga mo'ljallanmagan. Uning adabiy merosidan bir qismigina «Rasm (jivopis) haqida kitob» nomi bilan XVI asrda ma'lum bo'lgan.

Leonardo da Vinchi yangi, o'z davri ehtiyojlariga mos g'oyalarni olg'a surdi. Uning dunyoqarashi aqidaparast cherkov va sxolastlarning, astro loglar va alximiklarning asossiz da'volariga qarshi kurashda shakl-

landi. Leonardo da Vinchi sxolastlarning mulohazalarini sofistika, deb atagan edi. «Olov yolg'onni, ya'ni sofistni yuq qiladi,— deb yozadi Leonardo,— va qorongulikni quvib, haqiqatni namoyon qiladi. Olov har qanday sofistni yo'q qilishga yunalgan va haqiqatni tushuntiruv-chi, ta'lim beruvchidir, chunki u narsalarning mohiyatini yashiruvchi qorong'ulikni tarqatib yuboradigan yerug'lik».

Leonardo tabiatai ilmiy bilish tarafdori bo'lib, mo'jizaga asos-langan mulohazalarni hatiy inkor etardi. U tabiatning barcha hodisa-lari obyektiv qonuniyatga bo'ysunishini ta'kidlaydi; «Zaruriyat tabiat-ning murabbiysi, zaruriyat tabiatning mavzusi va ixtirochisi, ham ji-lovi, ham abadiy qonuni»².

Leonardo yerning dunyo markazi ekanligi haqidagi tasavvurlarni inkor qilib: «U quyosh doirasining markazi emas, dunyoning markazdda ham emas, balki O'zining, o'ziga yaqin va birlashib ketgan narsalarning markazidir³», — deb yozadi.

Yer, Leonardo fikricha, «Deyarli oyga o'xshagan yuldo'zdir». Mutafak-kirni bilish nazariyasi masalalari juda qiziqtirgan. Sezgi va tasav-vurlarning manbai tashqi dunyoning, tabiatning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasi, sezgi — bilishning boshlanishi, deb hisoblaydi: «Bizning barcha bilishimiz sezgilardan boshlanadi⁴».

Leonardo fikricha, bilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, «his qilmaydigan» narsa sifatidagi oynadan farq qilib, sezgi organlari predmetlardan, tashqi dunyo hodisalaridan olgan taassurotlarini ma'lum vaqtgacha saqlaydi.

Ilmiy faoliyatning mazmunini buyuk olim asosan insoniyatga kel-tiradigan amaliy foydasiga qarab belgalaydi. Uning harbiy sohada (masalan, tank g'oyasi), tuqimachilik (ishlab chiqarish sohasida masalan, avtomatik tuquv stanogi loyihasi), havoda uchish (parashyut g'oyasi bilan) kup sohalardagi ixtiro va loyihalari o'z davrining texnikaviy imkoniyatlari va ehtiyojlaridan ancha oldinga ketgan edi. Tajribaning mu-him rolini ta'kidlar ekan, Leonardo hodisa va fakglarni oddiy ko'za-tish va idrok qilish qancha ko'p bo'lsa ham haqiqatga erishishning minimal sharoiti, xolos, deydi. Hatto, tajriba ham buning yagona vositasi emas, deb biladi va bir yechimga ega haqiqatga erishish uchun nazariy taxlil zarurligini tushunadi. Amaliy tajriba va uning ilmiy angla-shini qushib olib borish zaruriyatini yangi haqiqatlarni kashf etish-ning bosh yo'li sifatida asoslab berdi: «Fansiz amaliyotga berilgan kishi, – deb yozadi Leonardo,– rulsiz yoki kompassiz kemani boshqarayotgan kapitan, u qayoqqa so'zayotgani haqida hech ishonchi yuq. Fan – sarkarda, amaliyot – soldatlardir. Tajribani anglash va umumlashti-rish uchun birinchi navbatda zarur bo'lgan eng ishonchli fanni matemati-ka, deb hisoblagan. Leonardo fikricha, fanning asosi bo'lgan amaliyotga tayanmay turib haqiqatni bilib bo'lmaydi. «Men ular kabi, deydi u, mualliflarga tayanmasam ham, undan-da buyukroq narsa – murabbiylar-ning murabbiysiga – tajribaga asoslanaman». Leonardo amaliyot tushunchasini tor tushunsada, uning fan va amaliyot birligi haqidagi ajoyib mulohazalari hozirgi kungacha ham ahamiyatini yo'qotgan emas.

Leonardoning dunyoqarashi metafizik cheklanganlikning keyingi falsafiy tizimlarga xos bo'lgan xususiyatlarini hali kasb etgan bo'lma-sada, uning asarlarida ajoyib dialektik taxminlar uchraydi. Masalan, u shuqday deb yozadi: «Har qanday oziqlanadigan narsalarning tanasi tinimsiz ula boradi va yana tinimsiz tug'ila boradi... Bir kunda qancha parchalansa, shuncha uning urnini tuldiradi, u vaqtda qancha sarflansa, shuncha tiriklik tug'iladi...»

Leonardoning imkoniyat va voqelik haqidagi, materiyaning bir holat-dan boshqa holatga utishi haqidagi mulohazalari ham stixiyali dialek-tika bilan yutrilgan: «Masalan, mo'zni olamiz va uni cheksiz bo'lib boramiz: u suvga aylandi, suvdan havoga va agar havo yana jipslashsa, yana suv to'ladi, suvdan dulga aylanadi va hokazo».

Leonardo insonparvarlik tamoyilidan kelib chiqib, insonning tabiatdan ustunligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Bir tomondan, inson tabiatsiz va undan tashqarida hech narsa qila olmaydi. Masalan, u alximiklar intilgani kabi oltin yarata olmaydi, chunki oltin faqat tabiat yaratishi mumkin bo'lgan oddiy narsalarning biridir. Lekin insonning kuch-qudrati keyin boshlanadi. U oddiy tabiiy modsalardan cheksiz turdagi murakkab narsalar, predmetlar yaratadiki, ular hech qachon tabiatda bo'lmagan va bo'lmaydi ham.

Uyg'onish davri badiiy-estetik tafakkurining rivojlanishida Leonardoning xizmati beqiyosdir. Ma'lumki, bu davrda realistlik san'at gullab-yashnagan edi. U musavvir sifatida qator asarlar yaratib, Italiya va undan tashqaridagi musavvirlarga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. U san'atning yirik nazariyotchisi sifatida maydonga chikdi. Uningcha, san'at ham fan kabi real dunyoni bilishga xizmat qiladi. Fanning asosiy vazifasi moddiy dunyoning miqdor tomondan ochishdir. Masalan, geometriya doirani kvadratga, tanani kubga qushishga harakat qiladi, arif-metika esa kvadrat va kub kupaytmalar bilan ish olib boradi. Oqibatda ikkala fan ham miqdorning o'zluqli va o'zluksizligini bilishga erishadi, lekin tabiatning haqiqiy go'zalligi ifodalangan sifat oldida ojizdir. Sifatlilikni bilishga asosan san'at orqali erishish mumkin. Sifatlilik shu bilan bir qatorda konkretlilikni, individualilikni, o'ziga xos, takrorlanmaslikni ham bildiradi. Bunda buyuk rassom tabiatda insonni estetik bahramand qiluvchi funksiyani ko'radi. U «shu darajada lazzeatli va xilmaxilliqli shunchalik tuganmaski, bir turga tegishli daraxtlar orasida boshqasiga to'la uxshaydigan o'simlik topilmaydi. Usimliklar, shoxlar, barglar, uruglar orasida ham boshqasiga aniq uxshaydiganini uchratib bo'lmaydi».

San'atning bilishdagi roli ijodkorning bu konkretlik va individualilikni maksimal darajada tiklash layoqatida aniqlanadi. San'atlar ichida birinchisi,

Leonardo fikricha, tasviriy san'atdir. Chunki, «jonning tuynugi hisoblanmish ko'z – tabiat cheksiz ijodining eng kup boyliklarini va buyukligini umumiy his qildiradigan bosh yo'dir.

Tasviriy san'atni faqat savodlilar emas, savodsizlar ham unday yoki bunday tushunadilar. Tasviriy san'at – tovushsiz poeziya, poeziya esa – rangsiz tasviriy san'atdir². Mohiyatan, Leonardo fikricha, san'at fandan yuksaqdir, chunki u tabiatning o'zini butunlay haqiqiy tasvirlay oladi, fan esa bunga layoqatli emas.

Hissiyotlarga asoslanish zaruriyati rassomga katta mas'uliyat yuklay-di, lekin haqiqiy rassom chuqur o'ylab ish qiladi. Oynaga o'xshab, ko'rga-nini o'ylamasdan tasvirlaydiganni rassom, deb bo'lmaydi. Rassomning ijodiy tabiati individuallikni va betakrorlikni tasvirlash uchun zarur layoqatga egaligida namoyon bo'ladi. Rassomning umumlashtiruvchi kuchi uning individuallashtirish layoqatiga mutanosibdir.

Leonardo fan kabi san'atning asosini ham tajriba, deb hisoblaydi. «...Yaxshi mulohaza yaxshi tushunishdan kelib chiqadi,— deb yozadi u,— yaxshi tushunish esa yaxshi qoidalaridan olingan asosdan kelib chiqadi, yaxshi qoidalar esa barcha fan va san'atlarning umumiy otasi bo'lgan yaxshi tajribaning qizidir»³.

San'atda kjsak natijalarga erishish uchun, Leonardo fikricha, hayotni o'rganish lozim.

Leonardo fan va san'atdagi sxolastikaga qarshi kurashib, ularning rivojida tanqidning buyuk rolini falsafiy tafakkur tarixida birin-chi bo'lib ta'kddlagan faylasuflardan. Hatto, musavvir bo'lmagan kishi-ning mulohazasini ham inkor qilish kerak emas. «Agar odamlar tabiat yaratgan narsalar haqida to'g'ri fikr qilishlarini bilsak,— deb yozadi Leonardo,— u vaqtda ular bizning xatolarimiz haqida xam mulohaza qila olishlarini yanada ko'proq tan olishga to'g'ri keladi»⁴.

Shunday qilib, tabiatni bilishda tajribaning hal klluvchi ahami-yatini ta'kidlash, mexanika va matematikani yuksak baholash, nazariy tadqiqotlarning hayot talablari bilan aloqasini urnatish, fanning rolini chuqur tushunish, sxolastikani inkor qilish – Leonardo da Vinchi falsafiy dunyoqarashining asosiy xususiyatlaridir.

Leonardo da Vinchi asarlari «Madonna gul bilan» (Ermitaj muzeyida saqlanadi), «Oqshom sirlari» (Fransiya Luvr muzeyida), «Jokonda» (Mona Liza portreti Luvr muzeyi) G'arb Uyg'onish davri tasviriy san'atining yuksak namunasidir.

XULOSA

Jahon madaniyati tarixida Renessans davri mutafakkirlarining estetik qarashlari, asarlari umumsinsoniy mazmuni bilan diqqatga sazovordir. Chunki, hozirgi davr madaniyatini globallashuv jarayonida ushbu muammo dolzarb hamiyat kasb etadi.

G'arb Uyg'onish davri tasviriy san'at xususiyatlarini umuminsoniy qadriyatlar tizimidagi o'rnini belgilash jarayonida qo'yidagi ilmiy xulosaga keldik:

- San'at ma'naviyat tizimida hozirgi davrda barkamol avlodni tarbiyalash vositasidir.

- umuminsoniy jihatlari bilan G'arb Uyg'onish davri namoyondalarining yuksak san'at asarlari axloq va ma'naviyatning pokligi uchun kurashadi.

- Rafael va Leonardo da Vinchi asarlari hozirgi davrda estetik didni shakllantirish, inson hissiyotlarini tarbiyalash jarayonida xizmat qiladi.

- G'arb Uyg'onish davri mashhur san'atkori Rafael va Sharqning buyuk rassomi Behzod ijodiyotida badiiy va estetik jihatlar umuminsoniy harakterga ega.

- Rafael va Leonardo da Vinchi asarlari rangtasvir, kompozisiya jihatidan uyg'unlik kasb etadi.

- G'arb Uyg'onish davri musavirlari asarlaridagi umuminsoniy tamoyillarni yoritish hozirgi davr madaniyati jarayonida badiiy, g'oyaviy, estetik jihatlari bilan barkamol avlodni tarbiyalashda alohida ahamiyatga sazovor.

Leonardoning dunyoqarashi metafizik cheklanganlikning keyingi falsafiy tizimlarga xos bo'lgan xususiyatlarini hali kasb etgan bo'lma-sada, uning asarlarida ajoyib dialektik taxminlar uchraydi. Masalan, u shuqday deb yozadi: «Har qanday oziqlanadigan narsalarning tanasi tinimsiz ula boradi va yana tinimsiz tug'ila boradi... Bir kunda qancha parchalansa, shuncha uning urnini tuldiradi, u vaqtda qancha sarflansa, shuncha tiriklik tug'iladi...»

Leonardoning imkoniyat va voqelik haqidagi, materiyaning bir holat-dan boshqa holatga utishi haqidagi mulohazalari ham stixiyali dialek-tika bilan yutrilgan: «Masalan, mo'zni olamiz va uni cheksiz bo'lib boramiz: u suvga

aylandi, suvdan havoga va agar havo yana jipslashsa, yana suv to'ladi, suvdan dulga aylanadi va hokazo».

Leonardo insonparvarlik tamoyilidan kelib chiqib, insonning ta-biatdan ustunligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Bir tomondan, inson tabiatsiz va undan tashqarida hech narsa qila olmaydi. Masalan, u alximiklar intilgani kabi oltin yarata olmaydi, chunki oltin faqat tabiat yaratishi mumkin bo'lgan oddiy narsalarning biridir. Lekin insonning kuch-qudrati keyin boshlanadi. U oddiy tabiiy modsalardan cheksiz turdagi murakkab narsalar, predmetlar yaratadiki, ular hech qachon tabiatda bo'lmagan va bo'lmaydi ham.

Italiya tasiriy san'atida Rafael nur – soya vositasining tengi yo'q ustasi hisoblanadi. Uning rasmlari yoqimli yorug'lik porlashida hamohanglik bilan uyg'unlashtirilgan. Yorug'lik Rafael asarlarida haqqoniy tasvirni to'lqinlantiruvchi go'zallik oqimiga cho'lg'anib yo'naltirilgan yuksak orzu – g'oya rolini bajaradi.

Buyoqlar yorqinligi bilan badiiy ifodasining nur-soya vositasi juda yaqin turadi. Nur – soya yordamida voqealik hodisalarining xossalari ifodalangan. Nur – soya musavvirlikda keng qo'llanilib u rasm buyoqli yechimning ajralmas qismidir.

San'at keng ma'noli tushunchadir. Zero, san'at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan narsalardir. San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. Va nihoyat, san'at insonning mahorati bilan chambarchas bog'liqdir. San'at, keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini ham qamrab oladi. San'at hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan.

San'at tarixiy taraqqiyot jarayonida hamisha ijtimoiy ehtiylarni qondirib kelgan. San'at ijtimoiy hayotning murakkab, rango-rang munosabatlari bilan aloqador bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham mehnatning alohida turi, ham ijtimoiy ishlab chiqarishning maxsus sohasi, ham ijtimoiy ongning bir shakli, ham o'ziga xos bilim sohasi, ham ijodiy faoliyatning bir ko'rinishi sifatida amal qiladi. San'at ijtimoiy hayotning mustaqil bir sohasi bo'lib, o'ziga xos qonuniyatlari vazifalariga

ko'ra u alohida jamiyat birligini ifodalaydi. San'at jamiyatning barcha tomonlariga ta'sir o'tkazadi, ijtimoiy ongning barcha shakllari bilan aloqaga kirishadi, hayotning turli jabhalarida odamlar faoliyat olib borishlarini rag'batlantiradi.

San'at bilan ijtimoiy hayotni bog'lab turadigan juda ko'p vositachi halqlar mavjud. Har qanday badiiy hodisa-muayyan asar, uslubiy yo'nalish bo'lsin, ular vujudga kelishi va rivojlanishida diniy, ahloqiy amallarning ta'sir kuchi darajasi bilan belgilanadilar, baholanadilar, o'lchanadilar.

San'at taraqqiyotining nisbiy mustaqilligi shu bilan izohlanadiki, jamiyat badiiy ravnaqining darajasi hamma vaqt ham uning iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga mos kelavermaydi. San'atning taraqqiyoti yoki tanazzuli, uning u yoki bu turi, ko'rinishining yorqin ifoda topishi aniq ijtimoiy munosabatlar tabiatiga, muayyan guruhiiy kuchlar nisbatiga, mafkuraviy hayot xususiyatlariga, jamiyatda shaxs egallab turgan maqomiga, albatta, bog'liqdir. Masalan, qadimgi dunyo san'atining ravnaqi bir qator shart-sharoitlar va omillarning bir-biriga mos kelishi va o'ta qulay vaziyatning vujudga kelishi orqasida qaror topdi. San'atning jamiyat hayotida nisbiy mustaqil amal qilishi vorisiylik qonuniyatining namoyon bo'lishi bilan ham bog'liq. Vorisiylik faqat san'atga xos bulgan hodisa emas. U ijtimoiy ongning hamma shakllariga taalluqlidir. Vorisiylik jamiyat moddiy asosi bilan bog'liq bo'lgan siyosiy va huquqiy ong sohalarida ko'proq namoyon bo'ladi.

Biz ko'rib chiqqan G'arb Uyg'onish davri tasviriiy san'atning namoyandalarining asarlari asl san'at namunalari sifatida umuminsoniy qadriyatlar tizimida muayyan o'rin egallab, jamiyatni yuksaltirishga hizmat qiladi.

Bu asarlarni o'rganish ulardan bebaho meros sifatida foydalanish, qadriyat sifatida munosabat qilish, amalda qullash hozirgi davr ma'naviiy va ma'rifiy vazifalardan hisoblanadi. Ushbu vazifani Prezident Islom Karimov o'zlarining «Istiqlol va ma'naviyat» asarida qayd qilib «Komil insonni tarbiyalashda san'at va adabiyot asarlarining o'rni beqiyos»ligini ta'kidlagan.

G'arb san'ati to'g'risidagi kitoblarni o'zbek tiliga tarjima qilish dolzrab masalalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: 1994.
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: 2008.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: 2010.
5. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-barpo etish pirovard maqsadimiz. T., 2010.
6. Abdullayev A. Norqulov M. Miniatyura tarixidan lavhalar. T. 1970.
7. Istoriya zarubejnoko iskusstva. M. 2002.
8. San'at. O'zbekiston Badiiy akademiya jurnali. T., 2010. №4.
9. Muqaddima Ashrafiy. Temur va Ulug'bek davri Samarqand miniatyurasi. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1996.
10. Norqulov N., I. Nizomiddin. Miniatyura tarixidan lavhalar. 1970.
11. Abdullayev N. «San'at tarixi». T., 1987.
12. Мастера искусств об искусстве, т. 1. М., 1964.
13. Alisher Navoiy. O'n besh tomlik. T., 1994.
14. Bobirnom, Toshkent, O'z FA nashriyoti, 1995.
15. Norqulov N. Kamoliddin Behzod. T.: 1964.
16. Alisher Navoiy dostonlariga ishlangan rasmlar. (albom muallifi Hamid Sulaymon).
17. Usmonov A. Kamolliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. T.: 1977.
18. Эстетика Ренессанса, М; 1981. Т 2, стр. 362.
19. Камолиддин Бехзод. К 525 литею со дня раждения. Материал научной конференции. Т.: 1984.
20. Ашрафи М.М., Бехзод и развитие Бухарский школы. Душанбе. 1987.
21. История философии в кратком изложении. Перевод с чешского И.И. Ботуга, – М., 1991.

- 22.История философии в кратком изложении. Перевод с чешского И.И. Богута.– М.1991.
- 23.Естетика Ренессанса, М; 1981. Т 2, стр. 362.
- 24.Камолиддин Бехзод. К 525 летию со дня рождения. Материалы научной конференции. Т.: 1984.
- 25.Ашрафи М.М., Бехзод и развитие Бухарский школы. Душанбе. 1987.
- 26.История философии в кратком изложении. Перевод с чешского И.И. Ботуга,– М., 1991.
- 27.Usmonov O., Madaraimov A. Kamoliddin Behzod. T.: 2000.
- 28.Quziyev T. Behzod va tamaddun. T.: 2000
29. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2-tom. 1997.
- 30.Umarov E. Estetika. 1995.
- 31.Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. 1998.
- 32.Nurmatov M. San'atning milliy o'ziga xosligi to'g'risida. 1995.
- 33.Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T.: 1997.
- 34.Raximova, Polyakova. Sharq adabiyoti va minatyurasi. 1989.
- 35.Лановенко О.П. Художественное воспитание. Киев. 1987
- 36.O'zbekiston tasviriy san'ati. 1976. №2
- 37.Nurmatov M. San'atning milliy o'zligi to'g'risida. 1995.
- 38.Леонардо да Винчи. Избр. произв. Т. 1. М-Л-, 1975.
- 39.www.ZiyoNet.uz
- 40.www.Google.ru,
- 41.www.lib.uz
- 42.www.ref.uz